

**B. BOLIBEKOV, A. MUSAYEV,
B. TURABBAYEV**

BUXGALTERIYA HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH



658.1
B-74

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

B.O. BOLIBEKOV, A.N. MUSAYEV,
B.B. TURABBAYEV

BUXGALTERIYA HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH

O'quv qo'llanma

Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2013

44 XIR 668
EMI kutubxonasi

UO'K: 336.004(075)

KBK: 65.052-5

B-74

Taqrizchilar: – B.Q. Xamdamov i.f.d. prof.;
– O.N. Jo'rayev i.f.n. dots,

Bolibekov B.O.

B-74 Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish. B.O. Bolibekov, A.N. Musayev, B.B. Turabbaev/O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi TMI. –T.: Iqtisod-Moliya, 2013. 168 bet.

Ushbu o'quv qo'llanma «Buxgalterga elektron madad» (BEM) milliy dasturiy mahsuloti asosida «Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish» predmeti bo'yicha bilimlarni 340000 - «Iqtisod va biznes», 5340900 – «Buxgalteriya hisobi va audit» bakalavriat yo'nalishi uchun o'zlashtirishni ta'minlaydi. «Buxgalterga elektron madad (BEM)» milliy dasturiy mahsulotidan ushbu yo'nalishda tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, yangi interaktiv va pedagogik texnologiyalarga asoslangan. «BEM SYSTEMS» MChJning BEM – «Buxgalterga elektron madad» loyihasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalar va tashkilotlarida buxgalteriya hisobi yuritishni to'liq avtomatlashtiradigan, o'zbek va rus tillarida bir xilda ish yuritish imkonini beradigan hamda soliq hisobotlarini aloqa tarmoqlari orqali elektron shaklda taqdim etish imkonini beruvchi, keng qamrovli ilk milliy dastur hisoblanib, hozirgi vaqtda u xo'jalik yurituvchi subyektlarda muvaffaqiyat bilan foydalanilmoqda. «BEM»ning tarkibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda buxgalteriya hisobini yuritishni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan. «BEM» milliy dasturiy mahsuloti O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi hamda O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasining yetakchi mutaxassislari tomonidan sinovdan o'tkazilgan va ma'qullangan. Dasturiy mahsulot buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish bo'yicha zamonaviy dasturiy ta'minotga qo'yiladigan barcha mezonlarga mos bo'lib, 21-sonli Buxgalteriya hisobining milliy standarti «Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnomalar» talablariga javob beradi.

UO'K: 336.004(075)

KBK: 65.052-5ya73

O'quv-uslubiy qo'llanma TMIning 2013-yil 18-iyundagi Ilmiy-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va №4-sonli qaror bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-13-453-9

© «IQTISOD-MOLIYA», 2013

© Bolibekov B.O., Musayev A.N.,

Turabbaev B.B., 2013

KIRISH

Buxgalteriya hisobi tarixiy rivojlanish jarayonida asta-sekin o'zgarib, takomillashib borgan. Jamiyat rivojlanishining har bir yangi bosqichida hisob registrlarining yangi turlari yuzaga kelgan va ularga qilinadigan yozuvlarning turlicha tartiblari hamda usullaridan foydalanilgan. Texnika vositalarining u yoki bu usullaridan foydalanish mazkur sharoitda yuzaga kelgan hisobdagi ro'yxatga olish tartibining xususiyatlarini aks ettiruvchi buxgalteriya hisobining turli shakllarining paydo bo'lishiga olib keldi.

Buxgalteriya hisobining paydo bo'lishidan boshlab o'tgan davr ichida uning shakllarida juda muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi korxonalarida, asosan buxgalteriya hisobining to'rtta shakli: soddalashtirilgan, memorial-order, jurnal-order va elektron hisoblash mashinalariga asoslangan avtomatlashtirilgan shakllari qo'llanilmoqda.

Bugungi kunda turli soha tizimlarida amalga oshirilayotgan avtomatlashtirish va modernizatsiyalash tendensiyasi buxgalteriya hisobi tizimini ham chetlab o'tmadi. Chunki hamma tashkilotlar amalda ish jarayonlarini, jumladan, buxgalteriya ishlarini avtomatlashtirishga muhtoj.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida xo'jalik amaliyotida kompyuter texnikasidan foydalanish buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan shaklini jadal rivojlantirishga yo'l ochib berdi. Kompyuterlar katta hajmdagi axborotni xotirasida saqlashga qodir. Hisob yuritishning ushbu zamonaviy shaklini qo'llash buxgalteriya hisobining hozirgi kundagi eng asosiy funksiyasi bo'lgan axborotlarni tezkor-operativ ravishda olish imkoniyatini yaratadi.

Buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan axborot tizimini tuzish ancha murakkab tadqiqot-izlanishidan iborat loyihaviy ish hisoblanadi. Buxgalteriya hisobining o'ziga xos jihatlari ko'p. Hujjatlarning ko'pligi, keng xotirali va o'tkazish

xususiyatlari yaxshiroq bo'lgan texnik vositalarni qo'llashni talab etadi. Har bir buxgalter o'z korxonasiga mos keladigan buxgalteriya hisoblarini avtomatlashtiruvchi dasturni tanlashiga to'g'ri keladi. Shunday dasturlar paketidan biri milliy mahsulotimiz bo'lmish «Buxgalterga elektron madad» – BEMdir.

«BEM»ning tarkibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda buxgalteriya hisobini yuritishni tartibga soluvchi turli me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan. Shu bilan birga to'plamdan standart hisobotlar va reglament hisobotlari majmuyi ham o'rin olgan.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish – buxgalteriya faoliyatining yaxshilanishi, korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyati nazoratining mukammallashishi, korxonada boshqaruvi samaradorligiga erishish, korxonada faoliyatining tubdan takomillashishidir.

«BEM» milliy dasturiy mahsuloti O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi hamda O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasining yetakchi mutaxassisleri tomonidan sinovdan o'tkazilgan. Dasturiy mahsulot buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish bo'yicha zamonaviy dasturiy ta'minotga qo'yiladigan barcha mezonlarga mos bo'lib, 21-sonli Buxgalteriya hisobining milliy standarti «Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnomasi» talablariga javob beradi.

O'zbekiston Respublikasi «Moliya – xo'jalik hamda buxgalteriya hisobini avtomatlashtiruvchi mahalliy dasturiy mahsulotlarini respublikaning barcha sohalariga joriy etish orqali hisobotlarni elektron tartibda topshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari rejasi»ning 7-bandiga muvofiq ushbu milliy dasturni oliy ta'lim muassasalar (OTM)da buxgalteriya hisobini yuritishga joriy etish hamda iqtisodiy ta'lim yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturi doirasida o'rganilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 3-dekabrda 469-sonli «Buxgalteriya hisobi va audit» ta'lim yo'nalishida «BEM» dasturi bo'yicha kurslarni tashkil etish to'g'risida»gi buyrug'i asosida institut rektorining 2010-yil 13-

dekabrda shu mazmundagi 309-sonli buyruqlari asosida institut professor-o'qituvchilari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi mutaxassislari bilan hamkorlikda «Buxgalterga elektron madad» kursi o'quv dasturi loyihasi ishlab chiqildi.

Yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarga asosan, respublikamizning barcha oliy o'quv yurtlarida buxgalterlarni tayyorlashda «BEM» – buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish dasturini o'zlashtirishga qaror qilindi.

Ushbu fakultativ fanni o'quv jarayoniga kiritishda talabalardan kompyuter savodxonligi hamda buxgalteriyani yuritish, moliyaviy va boshqaruv hisoblarini bilish talab etiladi. Shundaygina o'qitish o'z ijobiy natijasini beradi. Ikkinchidan, darslar (mashg'ulotlar) kompyuterlar bilan jihozlangan auditoriyalarda o'tkazilishi, ya'ni har bir talaba uchun alohida kompyuter bo'lishi shart. Ta'lim berish davomida har bir talabaning qiziqishi va qobiliyatlarini alohida hisobga olish, o'z sohalarini chuqur bilishlari muhimdir. Zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalanish, ularning bilim olishlarini ta'minlash, videofilmlar, slaydlar, prezentatsiyalardan foydalanish, «Buxgalteriya hisobi» kafedrasida mavjud bo'lgan boshqa texnologiyalarni qo'llash ta'lim samaradorligini yanada oshiradi.

Dasturiy mahsulotni 3-kurs talabalariga o'qitish maqsadga muvofiqdir, chunki ular bu paytga kelib, «Buxgalteriya hisobi nazariyasi», «Moliyaviy hisob», «Boshqaruv hisobi» kabi, ya'ni operatsiyalarni hisobga olishni, operatsiyalarni hujjatlashtirishni, hisob registrlarini yuritishni, hisobotlar tuzishni o'rgatuvchi predmetlar bilan tanish bo'ladilar. BEM – buxgalteriya hisobi yuritishning amaliy ko'nikmasidir.

«BEM – Buxgalterga elektron madad» fakultativ kursi 36 o'quv soatiga mo'ljallangan bo'lib, buxgalteriya hisobi yuritishning amaliy ko'nikmasini hosil qilishdan iboratdir. Mashg'ulotlar tugagach, har bir talabaning o'zlashtirish darajasi sinovdan o'tkaziladi va baholanadi.

Ushbu qo'llanma talabalarining BEM dasturini tezroq o'zlashtirishlari, hisob-kitob hujjatlarining yuzaga kelishi, ularni to'ldirish va ulardan foydalanishning asosiy prinsiplari bilan puxta tanishish uchun ko'mak beradi.

Talabalarga taqdim etilgan kurslar o'tib bo'lingach, korxonada misolida, ya'ni xizmat ko'rsatish hamda ulgurji va chakana savdo bilan shug'ullanuvchi «Treyd PLUS» MChJ tashkilotining birlamchi hujjatlarini yuritish o'rgatiladi. Keyinchalik misollar yordamida ma'lumotnomalarni qanday to'ldirish, qoldiqlarni kiritish, asosiy hujjatlarni to'ldirish va o'tkazish har bir soha bo'yicha alohida ko'rib chiqiladi va bu sohalar bo'yicha hisobotlarni tuzish yo'llari tushuntiriladi.

Kurs nihoyasida har bir talaba oborot-saldo qaydnomasi (vedomost)ini tuzib, uni ilova qilingan namunaga taqqoslab, o'z-o'zini sinab ko'rishini mumkin.

Mazkur kitob «Buxgalterga elektron madad» («BEM») milliy dasturiy mahsulotidan foydalanuvchilarga, oliy ta'limi muassasalari professor-o'qituvchilari hamda talabalariga mo'ljallangan bo'lib, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qo'llanma hisoblanadi.

I mavzu. BOSH MENYU

Dasturning yuqori qismida bosh menyu joylashgan bo'lib, u quyidagi bandlardan iborat:

1. «Fayl»:

a) dasturni yuklash - ma'lumotnomalarni dasturga kiritish. Dasturni yuklash Microsoft Excel dasturida tuzilgan shablon orqali amalga oshiriladi;

b) tashqi komponentlar - menyuning mazkur bandi quyidagi tashqi komponentlarni kiritishga xizmat qiladi:

d) qoldiqlarni kiritish - quyidagi hujjatlarga kiritish uchun xizmat qiladi: «Schyotlar bo'yicha qoldiqlarni kiritish», «Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar (NMA) bo'yicha qoldiqlarni kiritish», «TMZ bo'yicha qoldiqlarni kiritish»;

e) yopish - dasturning aktiv holatdagi oynalarini yopish;

f) chiqish - dasturdan chiqish.

2. «Muomalalar»:

a) konstantalar - shartli-doimiy axborot bilan ishlashga xizmat qiladi. Konstantalar bitta ma'lumotni (standart konstantalar) yoki ma'lumotning tarixini (muayyan sanaga ko'ra ma'lumotni eslab qolish imkoniyatini beruvchi davriy konstantalar) saqlashi mumkin.

b) hujjatlar jurnali - barcha hujjatlarning ro'yxati;

d) ma'lumotnomalar - barcha ma'lumotnomalarning ro'yxati;

e) hisobotlar - barcha hisobotlarning ro'yxati;

f) schyotlar rejasi - «Schyotlar rejasi» ma'lumotnomasi;

g) registrlar - ma'lumot registrlarining barcha ro'yxati va jamlama registrlari;

h) masterlar - oylikni hisoblash masteri;

i) belgilangan obyektlarni o'chirish - belgilangan obyektlarni dasturdan o'chirish (tiklash imkoniyatisiz). Ushbu funksiyadan faqat «monopoliya rejimi»da foydalanish mumkin;

j) hujjatlarni o'tkazish - hujjatlarni umumiy tarzda o'tka-

zish. Mazkur funksiyadan faqat «monopoliya rejimi»da foydalanish mumkin;

k) obyektни topishga yordam beruvchi izohlarni qidirish - belgilangan obyektни topish uchun izohlarni qidirish. Ma'lumotnomaning yoki hujjatning elementi obyekt bo'lishi mumkin;

l) obyektlarning ma'nosini o'zgartirish - obyektning bitta elementini boshqasiga almashtirish. Ma'lumotnomaning yoki hujjatning elementi obyekt bo'lishi mumkin. Mazkur funksiyadan faqat «Monopoliya rejimi»da foydalanish mumkin.

3. «Xizmat»:

a) kalkulyator - dasturdagi mavjud kalkulyator;

b) tillar - dastur interfeysining tilini o'zgartirish (o'zbek tili, rus tili);

d) ma'lumotlar - ma'lumotlar bazasining zaxira nusxasini vujudga keltirish va ma'lumotlar bazasining nusxasini tiklash;

e) elektron pochta orqali jo'natish;

f) foydalanuvchi shati;

g) taqvim - dasturdagi mavjud taqvim;

h) lupa - kompyuterdagi tasvirlarni kattalashtirish uchun tizimli dastur;

i) foydalanuvchining sozlash moslamalari - izohlarni, reklama ma'lumotlarini, asosiy shaklni ko'rish effektlarini yoqish (o'chirish);

j) sozlash - dasturning asosiy o'lovlarini aniqlash.

«Umumiy» varag'i:

- ma'lumotlar bazasining identifikatsiya raqami - bo'lingan dasturda sinxronlashtirish o'lovlarini sozlashga xizmat qiladi (ushbu modul dasturning standart to'plamiga kirmaydi);

- ish sanasi - kompyuter sanasidan farq qiluvchi sanada ishlashga xizmat qiladi. Agar «foydalanish» belgisi o'rnatilgan bo'lmasa, u holda tizim kompyuterda o'rnatilgan sanada ishlaydi. Dasturda sanani o'rnatish uchun «foydalanish» belgisini o'rnatish va kerakli sanani qo'ying.

«Vaqt bilan bog'liq intervallar» varag'i:

- hujjatlar jurnali - hujjatlar jurnali va hujjatlar ro'yxatlari shaklini ochishda vaqt oralig'ini aniqlaydi;

- hisobotlar - dasturda hisobotlarni ochishda vaqt oralig'ini

aniqlaydi (hisobotlar, hisobot menyusi orqali ochilmagan holatdan tashqari);

- registrlar - dasturda ma'lumotlar registri va jamlama registri ochilishida oraliq vaqtni aniqlaydi;

«**Buxgalteriya hisobi yakunlari**» varag'i:

ularning to'g'riligiga shubha tug'ilgan taqdirda bazaning butun qoldiqlarini har qanday ko'rsatilgan davr bo'yicha qayta hisoblash imkonini beradi. Elektr energiyasi ta'minotida yoki kompyuter ishida uzilishlar ro'y bergan taqdirda, ushbu harakatga zaruriyat vujudga kelishi mumkin;

«**Pochta qutisi**» varag'i:

- SMTP-server - chiquvchi pochta serveri;

- pochta qutisi - elektron pochta manzili;

- login - elektron pochta logini;

- parol - elektron pochta paroli;

«**Hokazolar**» varag'i yacheyka (xona)ni tahrir qilish tugagandan so'ng hujjatlarning jadval qismlarida fokusning o'tish yo'nalishlarini aniqlaydi («**enter**»ni bosgan paytda).

4. «**Oynalar**» - dasturda ochilgan oyualar bilan ishlash. O'z ichiga quyidagilarni oladi:

a) xabarlar oynasi - xabarlar oynasi paydo bo'ladi; masalan, foydalanuvchi tomonidan hujjat noto'g'ri to'ldirilsa yoki muhim bo'lmagan ma'lumotlar kirgizilsa.

b) yon panel - mazkur «oyna»ni ochishda, dastur yon paneli paydo bo'lib, unda buxgalter hisobotlarining barcha bo'limlari, reglamentlar, standart va reglament hisobotlari saqlanadi.

5. «**Yordam**» (yordam ishorasi):

a) yordam - dasturda mavjud bo'lgan yordam;

b) «**BEM**»ni ro'yxatdan o'tkazish - dasturni ro'yxatdan o'tkazish;

d) dastur haqida - dastur versiyasi haqidagi ma'lumot.

1.1. Yuqori panel

Yuqori panel - tez kirish paneli, dasturning yuqori qismi-dagi ko'rsatgichni bosish bilan paydo bo'ladi. Unda dasturning barcha buxgalteriya bo'limlarini o'z ichiga olgan - «**BANK**»,

«Kassa», «AV va NMA», «TMZ», «Xizmatlar», «OK», «ZP», «Ishlab chiqarish», reglament, standart hisobotlar, reglament hisobotlar, shuningdek, tez-tez foydalanadigan bank hujjatlari – «To'lov talabi», «To'lov topshirig'i», «Bank ko'chirmasi», «Bank bo'yicha hisobot» bor.

1.2. Yon panel (chap tomon)

Quyidagi bo'limlar panelning yon (chap) tomonida joylashgan:

- «Umumiy»;
- «Bank»;
- «Kassa»;
- «Uzoq muddatli aktivlar»;
- «TMZ hisobi, Savdo»;
- «Xizmat ko'rsatish»;
- «Kadrlar bo'limi»;
- «Ish haqini hisoblash»;
- «Ishlab chiqarish»;
- «Reglament»;
- «Standart hisobotlar»;
- «Reglament hisobotlar»;

Foydalanuvchiga qulay bo'lishi uchun «Yashirish» funksiyasi bo'lib, pastki yon paneldagi keraksiz bo'limlarni yashiradi va zarur bo'lganda pastki yon panel ko'rsatkichini bosib, ortga qaytaradi.

1.3. Yon panel (o'ng tomon)

O'zR Soliq kodeksining nizom va matnlari - soliq to'lash muddatlari va budjetga ajratmalar to'lash muddatini bildiruvchi soliq bo'yicha hisobotlar shakllari va ajratmalar soliq to'lovchining kalendari yon (o'ng tomon) panelda joylashgan.

Soliq to'lovchining kalendari quyidagilardan iborat:

- a) kalendar;
- b) soliq (ajratmalar turi) – muddatga muvofiq soliqlar tartibi va ajratmalar;

- d) eslatma muddati — soliq to'lash (ajratmalar) yoki hisobotlar topshirish muddati eslatmalari;
- e) nomlar — soliq (ajratmalar) nomlari;
- f) xabar bandi — muddatga muvofiq eslatma soliq (ajratma) bo'yicha xabar;
- g) asos — Soliq kodeksining (nizom va boshqalar) shu soliq (ajratmaga) ko'rsatilgan bandlari.

1.4. Standart muomalalari

Standart muomalalari dastur hujjatlari va ma'lumotnomalarning barcha turlari bilan ishlashda qo'llaniladi. Ular quyidagilardan iborat:

- a) «Guruhga kirish» tugmachasi — ma'lumotnoma elementlar guruhiga kirishga imkon yaratadi;
- b) «Guruhdan chiqish» tugmachasi — ma'lumotnoma elementlar guruhidan chiqishga imkon yaratadi;
- d) «Yangi element qo'shish» (guruh) tugmachasi — yangi element (guruh)ga ma'lumotnoma yoki yangi hujjat qo'shish imkonini beradi;
- e) «Nusxa ko'chirish» tugmachasi — ma'lumotnoma elementi yoki hujjatdan nusxa olish imkonini beradi;
- f) «O'zgartish» tugmachasi — O'tkazilgan hujjat yoki saqlanayotgan ma'lumotnoma elementiga o'zgartish kiritish imkonini beradi;
- g) «Chiqarishni belgilash» tugmachasi — hujjatlar va ma'lumotnoma elementlaridan chiqarish, monopol tartibini o'rnatishda faol muomalalar, «Belgilangan obyektlarni chiqarishda qo'llaniladi»;
- h) «Filtr o'rnatish» tugmachasi — hujjatlar va rekvizit ma'lumotnomalarni filtrlashni amalga oshiradi;
- i) «Filtrni o'chirish» tugmachasi — avval o'rnatilgan filtrni o'chirish imkonini beradi;
- j) «Yangilash» tugmachasi — ma'lumotnomalar elementlari va hujjatlardagi o'zgartirishlarni yangilash imkonini beradi;

k) «Kengaytirilgan qidirish» – ma’lumotnomalar yoki hujjatlardagi berilgan matndagi (nomlar, soʻzlar)ni kengaytirilgan qidirish imkonini beradi;

l) «Ommaviy ajratish» tugmachasi – bir necha ma’lumotnoma elementlari ajratish yoki bir necha hujjatlarni kerakli muomalada bajarish imkonini beradi (masalan, «hujjatni oʻtkazish»);

m) «Oʻtkazish» tugmachasi – hujjatni oʻtkazish imkonini beradi;

n) «Oʻtkazishni toʻxtatish» tugmachasi – hujjatni keyingi oʻzgartishgacha toʻxtatadi.

Tayanch soʻzlar:

- Yuqori panel
- Yon panel (chap tomon)
- Yon panel (oʻng tomon)
- Standart muomalalari

II mavzu. KONSTANTALAR

Konstantalar - shartli-doimiy axborot bilan ishlashga xizmat qiladi. Konstantalar bitta ma'lumotni (standart konstantalar) yoki ma'lumotning tarixini (muayyan sanaga ko'ra ma'lumotni eslab qolish imkoniyatini beruvchi davriy konstantalar) saqlashi mumkin.

Konstantalar quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

- ma'lumotlarni ko'rsatish - berilgan sanadagi ma'lumotlarni aks ettirish;
- ma'lumotning kelib chiqish tarixini aks ettirish;

«Ish haqi varag'i»:

- eng kam ish haqi miqdori;
- plastik kartochkalar schyoti (tanlov «Schyotlar rejasida» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

- Qaydnomadagi sonlarni yaxlitlash - variantlarning qat'iy belgilangan ro'yxati («yaxlitlanmagan», «0 gacha yaxlitlashtirish», «10 gacha yaxlitlashtirish», «100 gacha yaxlitlashtirish», «1000 gacha yaxlitlashtirish»);

«Boshqalar» varag'i:

- tahrir qilishni man etish sanasi;
- hisobdan chiqarish usuli - variantlarning qat'iy belgilangan ro'yxati («FIFO», «AVECO», «baholar usuli»);

- Ishlab chiqarishni rejali hisobi schyotini yuritishni (tanlov «Schyotlar rejasidan» tanlanib, 2840-«Tayyor mahsulotlarning rejali tannarxi bo'yicha») tavsiya qilinadi.

- Yarimtayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rejali hisobi schyotini yuritishni (tanlov «Schyotlar rejasidan» tanlanib, 2140-«Yarimtayyor mahsulotlarning rejali tannarxi bo'yicha») tavsiya qilinadi.

III mavzu. BANK OPERATSIYALARI

3.1. To'lov topshiriqnomasi

«To'lov topshiriqnomasi» hujjati tashkilot hisob-kitob varaqlaridan bankdagi boshqa hisoblarga mablag'ni o'tkazishga xizmat qiladi. Hujjatda quyidagilar keltiriladi:

a) hujjat soni;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot — ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) bizning hisob-kitob schyotlari - tashkilot hisob-kitob raqamining nomi, undan pul mablag'lari o'tkaziladi (tanlov «Shaxsiy hisobkitob schyotlari» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

f) valuta - ushbu maydon «Shaxsiy hisob-kitob schyotlari» maydonida yoki «Vakillik hisob raqami» maydonida valuta hisob raqami ko'rsatilgan taqdirda aks ettiriladi, «Valutalar» ma'lumotlar registrida belgilangan kurs bo'yicha;

g) harakatlanish turi (tanlov «Pul mablag'larining harakatlanishi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

h) aloqa hisob raqami - aloqalanuvchi hisob raqam;

i) aloqa h/r subkonto 1, 2, 3 - schyot tahlili;

j) valuta summasi - «shaxsiy hisob-kitob schyotlari» maydonida yoki «vakillik hisob raqami» maydonida, valuta hisob raqami ko'rsatilgan taqdirda maydondan foydalanish mumkin;

k) o'tkaziladigan pul summasi (milliy valutada);

l) oluvchi - kontragent (tanlov «Kontragentlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi) pulni oluvchi;

m) kontragentning hisob-kitob raqami (tanlov «Kontragentning hisob-kitob raqami» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

n) to'lov tafsilotlari - hujjat va operatsiyalarga sharhlar berish uchun xizmat qiladi;

o) hujjatga sharhlar.

Hujjat o'tkazmalarni shakllantirmaydi. O'tkazmalar «Bank ko'chirmasi» hujjati ko'magida yaratiladi.

3.2. To'lov talabnomasi

«**To'lov talabnomasi**» hujjati hisob-kitobni bank orqali kreditorlarga to'lash uchun xizmat qiladi. Hujjatda quyidagilar keltiriladi:

a) hujjatning raqami;

b) yaratilgan sanasi - ushbu hujjatda aks ettirilgan sana;

d) hujjat sanasi;

e) tashkilot — ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

f) bizning tashkilotning hisob-kitob raqami («Bizning hisob-kitob raqamlar» ma'lumotnomasida ro'yxatga olingan tushuvchi ro'yxatdan tanlov amalga oshiriladi);

g) to'lovchi — kontragent (tanlov «Kontragentlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

h) kontragentning hisob-kitob raqami (tanlov «Kontragentning hisob-kitob raqami» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

i) o'tkaziladigan summa (milliy valutada);

j) to'lov tafsilotlari - hujjat va operatsiyalarga sharhlar berish uchun xizmat qiladi;

k) hujjatga sharhlar.

Hujjat o'tkazmalarni shakllantirmaydi.

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

— to'lov talabnomasi.

3.3. Bankning ko'chirmasi

Bank operatsiyalarining tashkilotning hisob-kitob raqami orqali qayd qilinishi «**Bankning ko'chirmasi**» hujjati orqali amalga oshiriladi. Hujjatda quyidagilar keltiriladi:

Tashkilotning hisob-kitob raqami orqali o'tkazilayotgan bank operatsiyalarining qayd qilinishi «**Bankning ko'chirmasi**» hujjati orqali amalga oshiriladi. Hujjatda quyidagilar keltiriladi:

a) hujjatning raqami;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) bizning hisobraqamlar - tashkilot hisob-kitob raqamining nomi (tanlov ma'lumotnomasi orqali «bizning hisobraqamlar» maydonidan amalga oshiriladi);

f) valuta – «bizning hisobraqamlar» schyotlari maydonida yoki «aloqalanuvchi schyot» maydonida valuta hisob raqami ko'rsatilgan taqdirda maydondan foydalanish mumkin (tanlov «Valutalar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi), «Valutalar» ma'lumotlar registrida belgilangan kurs bo'yicha;

g) hujjatga sharhlar.

Jadval qismi:

a) to'lov hujjati - variantlarni qat'iy belgilangan ro'yxatdan tanlab olishga xizmat qiladi («To'lov topshiriqnomasi», «Kirim kassa orderi», «Chiqim kassa orderi», «Kirim kassa orderi (valuta bo'yicha)», «Chiqim kassa orderi (valuta bo'yicha)»);

b) harakatlanish turi (aloqalanuvchi hisob raqamni va hisob raqam tahlilini to'ldirish variantlari keltirilgan shablon);

d) aloqa schyoti - aloqalanuvchi schyot, ya'ni korrespondent schyot; (korr. schyot)

e) aloqa h/r subkonto 1, 2, 3 - hisob raqam tahlili;

f) valuta summasining kirimi (chet el valutasida). «Bizning hisobraqamlar schyotlari» joyida yoki «aloqalanuvchi schyot» joyida valuta hisob raqami ko'rsatilgan taqdirda joydan foydalanish mumkin (tanlov «Valutalar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

g) valuta mablag'ini sarflash (chet el valutasida) «Bizning hisobraqamlar schyotlari» joyida yoki «Aloqalanuvchi schyot» joyida valuta hisob raqami ko'rsatilgan taqdirda joydan foydalanish mumkin (tanlov «Valutalar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

h) kirim - tashkilot hisob raqamiga kiruvchi miqdor (milliy valutada);

i) chiqim - tashkilot hisob raqamidan amalga oshirilgan chiqim miqdori (milliy valutada);

j) to'lov tafsilotlari - berilgan hisob-kitob raqami bo'yicha harakatlanish yuzasidan sharhlarga ega;

k) to'lov hujjatining raqami. «To'lov hujjati» maydoni to'ldirilgan taqdirda mazkur maydon hujjat raqami bilan avtomatik tarzda to'ldiriladi. Aks holda - maydon avtomatik tarzda to'ldirilmaydi.

Hujjat quyidagilarni aks ettiradi:

a) kun boshlanishidagi qoldiq;

b) kun oxiridagi qoldiq;

d) bir kundagi aylanmalar (Dt, Kt).

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

1) kirim:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Valuta	Valuta summasi	Izoh
Hisob-kitob raqamlaridagi pul mablag'lari hisobini yuritish schyoti	Bizning hisobraqamlar	Aloqa h/r	Subkonto	Valuta		

1) chiqim:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Valuta	Valuta summasi	Izoh
Aloqa h/r	Subkonto	Hisob-kitob raqamlaridagi pul mablag'lari hisobini	Bizning hisobraqamlar	Valuta	Valuta summasi	

«Aloqa h/r» maydonida «5000» guruhi hisobidagi qo'shimcha schyot ko'rsatilgan taqdirda ushbu hujjat satrlar bo'yicha o'tkazmalarni amalga oshirmaydi. Mazkur o'tkazmalar kassa orderlari bilan shakllantiriladi.

Tayanch so'zlar:

To'lov topshiriqnomasi

To'lov talabnomasi

Bankning ko'chirmasi

YK 2668

IV mavzu. QOLDIQLARNI KIRITISH

4.1. Soliqlar va chegirmalar qoldiqlarini kiritish

Soliqlar va ajratmalar bo'yicha qoldiqlarni kiritish «**Soliqlar va chegirmalar qoldiqlarini kiritish**» hujjati ko'magida amalga oshiriladi. Hujjat quyidagilarga ega:

- a) hujjat soni;
- b) hujjat sanasi;
- d) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;
- e) hujjat bo'yicha sharhlar.

Jadval qismi:

a) soliqlar va ajratmalar (tanlov «Soliqlar va ajratmalar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

b) schyot - soliqlar va ajratmalar ko'rsatilgandan keyin mazkur maydon avtomatik tarzda to'ldiriladi (tanlov «4400», «4500», «6400», «6500» schyotlari guruhlardagi qo'shimcha schyotlardan tushgan ma'lumotlardan amalga oshiriladi);

d) Summa - saldo.

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

1) agar schyot aktiv bo'lsa:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Summa	Izoh
0000	-	Schyot	Soliqlar va ajratmalar	Summa	

2) agar schyot passiv bo'lsa:

Dt	Subkonto	Kt	Subkon	Summa	Izoh
Schyot	Soliqlar va ajratmalar	0000	-	Summa	

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

- hujjatning harakatlanishi.

4.2. Nomoddiy aktivlar bo'yicha qoldiqlarni kiritish

Nomoddiy aktivlar bo'yicha qoldiqlarni kiritish «**Nomoddiy aktivlar bo'yicha qoldiqlarni kiritish**» hujjati ko'magida amalga oshiriladi. Hujjatda quyidagilar keltiriladi:

- a) hujjatlar soni;
- b) hujjat sanasi;
- d) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;
- e) schyot - qat'iy cheklangan ro'yxat («Nomoddiy aktivlar» ma'lumotnomasida berilgan nomoddiy aktivlar guruhi);
- f) hujjatga sharhlar.

Jadval qismi:

- a) nomoddiy aktivlar kodi;
- b) nomoddiy aktiv (tanlov «Nomoddiy aktivlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
- d) saqlash joyi (tanlov «Saqlash joyi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
- e) tiklash qiymati;
- f) hisoblangan amortizatsiya summasi;
- g) qayta baholash summasi.

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Summa	Izoh
Nomoddiy aktivlar schyoti	saqlash joyi	0000	-	Summa	Tiklash qiymati
0000	-	Amortizatsiya hisobini yuritish schyoti	Nomoddiy aktivlar, saqlash joyi saqlash joyi	Summa	Hisoblangan amortizatsiya

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

- hujjatning harakatlanishi.

4.3. Asosiy vositalar bo'yicha qoldiqlarni kiritish

Asosiy vositalar bo'yicha qoldiqlarni kiritish «**Asosiy vositalar bo'yicha qoldiqlarni kiritish**» hujjati ko'magida

amalga oshiriladi. Hujjatda quyidagilar keltirilgan:

a) hujjatning raqami;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) schyot - qat'iy cheklangan ro'yxat («Asosiy vositalar» ma'lumotnomasida berilgan asosiy vositalar guruhi);

f) hujjatga sharhlar.

Jadval qismi:

a) asosiy vositalar kodi;

b) asosiy vosita (tanlov «Asosiy vositalar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi)

d) saqlash joyi (tanlov «Saqlash joyi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

e) tiklash qiymati;

f) hisoblangan eskirish summasi;

g) qayta baholash summasi.

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

Di	Subkonto	Kt	Subkonto	Summa	Izoh
Asosiy vositalar schyoti	Asosiy vositalar, saqlash joyi	0000	-	Summa	Tiklash qiymati
0000	-	Asosiy vositalar ning eskirishi schyoti	Asosiy vositalar, saqlash joyi	Summa	Hisoblangan eskirish summasi
0000	-	8510	Asosiy vositalar	Summa	Qayta baholash summasi

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

- hujjatning harakatlanishi.

4.4. Yetkazib beruvchilar va buyurtma beruvchilar qoldiqlarini kiritish

Ta'minotchilar va buyurtmachilar bo'yicha qoldiqlarni kiritish «**Yetkazib beruvchilar va buyurtma beruvchilar qoldiqlarini kiritish**» hujjati ko'magida amalga oshiriladi.

Hujjatda quyidagilar mavjud:

- a) hujjatlar soni;
- b) hujjat sanasi;
- d) tashkilot — ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;
- e) hujjatga sharhlar.

Jadval qismi:

a) kontragent (tanlov «Kontragentlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

b) shartnoma — (tanlov «Shartnomalar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

d) schyot (tanlov «Schyotlar rejasi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

e) summa - saldo;

f) valuta — valuta nomi. «schyot» maydonida valuta hisob raqami ko'rsatilgan taqdirda ushbu maydonda tahrir qilish mumkin bo'ladi (tanlov «Valuta» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi).

g) valuta summasi - valutadagi summa; «Schyot» maydonida valuta hisob raqami ko'rsatilgan taqdirda ushbu maydonda tahrir qilish mumkin bo'ladi.

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

1) agar hisob aktiv bo'lsa:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta summasi	Izoh
Schyot	Kontragent, shartnoma	0000	-	Valuta	Summa	Valuta summasi	

2) agar hisob passiv bo'lsa:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta summasi	Izoh
0000	-	Schyot	Kontragent, shartnoma	Valuta	Summa	Valuta summasi	

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

- hujjatning harakatlanishi.

4.5. Hisoblar bo'yicha qoldiqlarni kiritish

Schyotlar bo'yicha qoldiqlarni kiritish «Hisoblar bo'yicha qoldiqlarni kiritish» hujjati orqali amalga oshiriladi. Hujjatda

quyidagilar keltiriladi:

a) hujjat raqami;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) hujjat bo'yicha sharhlar.

Jadval qismi:

a) schyot (tanlov «Schyotlar rejasi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

b) subkonto 1, 2, 3 - hisobning tahlili;

d) valuta – «Schyot» maydonida valuta hisob raqami ko'rsatilgan taqdirda ushbu maydonda tahrir qilish mumkin bo'ladi (tanlov «Valuta» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

e) Dt miqdori - debet saldosi;

f) Dt valuta miqdori - valutadagi debet saldo. «Schyot» maydonida

valuta hisob raqami ko'rsatilgan taqdirda ushbu maydonni tahrir qilish mumkin bo'ladi;

g) Dt miqdori - agar schyot miqdorga oid bo'lsa, maydondan foydalanish mumkin;

h) Kt miqdori - kredit saldosi;

i) Kt valuta miqdori - valutadagi kredit saldosi. «Schyot» maydonida valuta hisob raqami ko'rsatilgan taqdirda ushbu maydonni tahrir qilish mumkin bo'ladi;

j) Kt miqdori - schyot miqdorga oid bo'lgan taqdirda maydondan foydalanish mumkin.

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

1) agarda schyot aktiv bo'lsa:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta summasi	Izoh
0000	-	Schyot	Subkonto	Valuta	Dt summa	Valuta summasi	

2) agar hisob passiv bo'lsa:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta summasi	Izoh
0000	-	Schyot	Subkonto	Valuta	Kt summa	Valuta summasii	

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

- hujjatning harakatlanishi.

4.6. TMZ bo'yicha qoldiqlarni kiritish

Tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha qoldiqlarni kiritish «Tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha qoldiqlarni kiritish» hujjati orqali amalga oshiriladi:

- hujjat soni;
- hujjat sanasi;
- tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;
- TMZni saqlash joyi (tanlov «Saqlash joyi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
- «Bu chakana» belgisi - qoldiqlar chakana baho bo'yicha kiritilishini anglatadi;
- hujjatga sharhlar.

Jadval qismi:

- TMZ nomi (tanlov «Tovar-moddiy zaxiralar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
- shyot - TMZ ko'rsatilganidan keyin mazkur maydon avtomatik tarzda to'ldiriladi (tanlov «Shyotlar rejasi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
- sotib olish bahosi - sotib olish tannarxi;
- ustama bilan birga - ushbu maydon «bu chakana baho» belgisi yoqilgan holda aks ettiriladi. «Sotish bahosini belgilash» hujjatning «chakana baho» maydonidan to'ldiriladi;
- miqdori;
- mahsulot tannarxining miqdori;
- mahsulotning ustamani hisobga olgan holdagi miqdori - «bu chakana» belgisi yoqilgan taqdirda aks ettiriladi.

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

- «baholar usuli»:

- «bu chakana» belgisi o'chirilgan bo'lsa:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Summa	Izoh
TMZ hisobi shyoti	TMZ, saqlash joyi, bahosi	0000	-	Sotib olish bahosi, miqdori	

b) «bu chakana» belgisi yoqilgan bo'lsa:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Summa	Izoh
TMZ hisob schyoti	TMZ, saqlash joyi, bahosi	0000	-	Ustama bilan birga, miqdori	
0000	-	Ustama Hisobini (2980) yuritish schyoti (2980)	TMZ, saqlash joyi, bahosi	Mahsulotning ustamani hisobga olgan holdagi miqdori	Ustama summasi

2) «FIFO/AVECO usuli» bilan («AVECO uchun» subkonto «tovar partiyasi» bo'lmasa):

a) Agar «bu chakana» belgisi o'chirilgan bo'lsa:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Summa	Izoh
TMZ hisobini	TMZ, saqlash joyi, tovar	0000	-	Sotib olish bahosi, miqdori	

b) «Bu chakana» belgisi yoqilgan bo'lsa:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Summa	Izoh
TMZ hisobini yuritish schyoti	TMZ, saqlash joyi, tovar turkumi	0000	-	Ustama bilan birga, miqdori	
0000	-	Ustama hisobini yuritish schyoti (2980)	TMZ, saqlash joyi, tovar turkumi	Mahsulotning ustamani hisobga olgan holdagi miqdori	Ustama summasi

«AVECO» usuli:

a) agar «bu chakana» belgisi o'chirilgan bo'lsa:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Summa	Izoh
TMZ hisobini	TMZ, saqlash joyi	0000	-	Sotib olish bahosi, miqdori	

b) «Bu chakana» belgisi yoqilgan bo'lsa:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Summa	Izoh
TMZ hisobini yuritish schyoti	TMZ, saqlash joyi	0000	-	Ustama bilan birga, miqdori	

0000	-	Ustama hisobini yuritish schyoti (2980)	TMZ, saqlash joyi, tovar turkumi	Mahsulotning ustamani hisobga olgan holdagi miqdori	Ustama summasi
------	---	---	----------------------------------	---	----------------

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

- hujjatning harakatlanishi.

Tayanch soʻzlar:

Soliqlar va chegirmalar qoldiqlarni kiritish.

Nomoddiy aktivlar boʻyicha qoldiqlarni kiritish.

Asosiy vositalar boʻyicha qoldiqlarni kiritish.

Yetkazib beruvchilar va buyurtma beruvchilar+ qoldiqlarini kiritish.

Hisoblar boʻyicha qoldiqlarni kiritish.

TMZ boʻyicha qoldiqlarni kiritish.

V mavzu. G'AZNA OPERATSIYALARI

5.1. Terminal bo'yicha to'lov

Plastik kartochkalar orqali o'tkaziladigan to'lovlarni qayd qilish uchun «Terminal bo'yicha to'lov» hujjati maydonidan foydalaniladi. Hujjat qo'lda to'ldiriladi va terminal orqali to'lovlar tushumini topishni yengillashtiradi. Ushbu hujjatda qayd qilingan mablag'lar «Yagona soliq to'lovi» hisobotida aks etmaydi.

a) hujjatning raqami;

b) hujjatning sanasi;

d) tashkilot — ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) «Batafsil» bayroqchasi har bir yozuv uchun ma'lumotlarni alohida kiritishni belgilaydi. Agarda hujjatning asosiy qismidagi «Faoliyat turi», «Daromad schyotlari» qatoridagi «Ha» va «Qo'shimchalar» varag'idagi «Subkonto 1», «Subkonto 2», «Subkonto 3» daromadlar schyotlari analitikasida o'zgartirib bo'lmaydigan holga kelsa, jadval qismida o'zgartirib bo'ladi. Qator qo'shayotganda agarda «Batafsil» bayroqchasi o'rnatilmagan bo'lsa, ko'rinmas qatorlar uchun ma'lumotlar shapkadan olib, to'ldiriladi (shapkadagi qiymatlar o'zgarganda ko'rinmas qatorlarning jadvali qismida yangi qiymatlar bilan o'zgaradi). Agarda «Yo'q» bo'lsa, foydalanuvchi har bir qator uchun barcha ma'lumotlarni alohida-alohida ko'rsatadi;

f) faoliyat turi;

g) daromad schyotlari — «5710» schyot uchun aloqa (korr.) schyoti.

Agarda «Batafsil» bayroqchasi o'chirilgan bo'lsa, «Asosiy»ning jadvali qismi:

a) nomenklatura — tanlov tovar-material zaxiralar qo'llanmasidan amalga oshiriladi (to'lov amalga oshirilayotgan xizmat yoki tovarni qo'shimcha ravishda ko'rsatish uchun mo'ljallangan);

b) pul – terminal bo'yicha tushum qilinib, ro'yxatga olinayotgan pul;

d) «...dan qabul qilingan» – hujjatga izoh beradigan kimdan qabul qilinganligini ko'rsatuvchi qator.

Agarda «Batafsil» bayroqchasi yoqilgan bo'lsa, «Asosiy»ning jadvali qismi:

a) faoliyat turi – tanlov faoliyat turi qo'llanmasidan amalga oshiriladi (qayd qilingani bo'yicha asosiy faoliyat turi). («Batafsil» bayroqchasi yoqilganda o'zgartirish mumkin);

b) nomenklatura – tanlov tovar-material zaxiralar qo'llanmasidan amalga oshiriladi (to'lov amalga oshirilayotgan xizmat yoki tovarni qo'shimcha ravishda ko'rsatish uchun mo'ljallangan);

d) pul – terminal bo'yicha tushum qilinib, ro'yxatga olinayotgan pul;

e) «...dan qabul qilingan» – hujjatga izoh beradigan kimdan qabul qilinganligini ko'rsatuvchi qator;

f) daromadlar schyotlari – qayd qilingan bo'yicha faoliyat turidan kelib chiqib schyot tanlanadi, ammo bu qator tahrir qilinadi («Batafsil» bayroqchasi yoqilganda o'zgartirish mumkin).

g) Subkonto 1-daromadlar schyotlari analitikasi («Batafsil» bayroqchasi yoqilganda o'zgartirish mumkin);

h) Subkonto 2-daromadlar schyotlari analitikasi («Batafsil» bayroqchasi yoqilganda o'zgartirish mumkin);

i) Subkonto 3-daromadlar schyotlari analitikasi («Batafsil» bayroqchasi yoqilganda o'zgartirish mumkin).

Jadval qismi – «Qo'shimcha»

a) yo'ldagi mablag'lar schyoti- schyot «5710», yo'ldagi pul mablag' – (o'tkazma)larini hisobi schyoti shartli ravishda o'rnatilgan;

b) bizning hisobraqam – hisob-kitob raqami tanlovi pul mablag'i tushayotgan hisob-kitob raqamidir

d) subkont 1-daromad schyotining tahlili («Batafsil» belgisini qo'ymaganda kirish mumkin)

e) subkont 2-daromad schyotining tahlili («Batafsil» belgisini qo'ymaganda kirish mumkin)

f) subkont 3-daromad schyotining tahlili («Batafsil» belgisini qo'ymaganda kirish mumkin).

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

Dt	Subkont	Kt	Subkont	Summa	Sharxlar
Yo'ldagi pul mablag' (o'tkazma)lari	Hisob-kitob schyoti	Darom adlar schyoti	Subkont 1, Subkont 2 Subkont 3	Summa	

Hujjatning bosma shakli:

- hujjat harakati.

5.2. To'lov qaydnomasi

Tashkilot xodimlariga pul to'lash «**To'lov qaydnomasi**» hujjati orqali amalga oshiriladi. Hujjat quyidagilardan iborat:

- a) hujjat raqami;
- b) hujjat sanasi;
- d) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlar nomi avtomatik tarzda qo'yiladi;
- e) to'lov turi – tanlov «Hisob-kitob turlari» qo'llanmasi asosidan tarkib topadigan ro'yxatdan kelib chiqib, amalga oshirilib, tarkibiy qismida hisob-kitob turiga «to'lov», qayd qilingan bo'yicha avans (bo'nak) turadi, yangi turdagi to'lovni, masalan, «maosh»ni ko'rsatish uchun «yangisini yarat»ni tanlash kerak;
- f) bo'linma (tanlov «Bo'linmalar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
- g) ish haqi hisob raqami – ushbu qaydnoma bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish paytida pul mablag'lari olinadigan hisob raqam (tanlov «Schyotlar rejasi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi, qayd qilinmasdan «6710»);
- h) yaxlitlash – beriladigan summani yaxlitlash. Variantlarning qat'iy belgilangan ro'yxati («yaxlitlamaslik», «0 gacha yaxlitlash», «10 gacha yaxlitlash», «100 gacha yaxlitlash», «1000 gacha yaxlitlash»);
- i) asos – «to'lov turi» to'lov turiga qarab avtomatik tarzda qo'yiladi, mazkur to'lov amalga oshirilayotgan «oy»ni ko'rsatish zarur;
- j) «hisob-kitob qilingan» belgisi - qaydnomalarning hisob-kitob qilinganligini belgilaydi. Agarda to'lov qaydnomasi «Kassa chiqim orderi» hujjati bilan hisob-kitob qilingan bo'lsa, u holda belgi avtomatik tarzda qo'yiladi;

k) «soliq olinadigan daromad» belgisi - «Xodimlarga to'lanadigan summalar to'g'risidagi ma'lumotlar» hisobotini to'ldirish, bunda ma'lumotlarni sharhlash, soliqqa tortiladigan daromaddan to'langan summa va sanasini ko'rsatish uchun kerak;

l) «to'ldirish» tugmasi - hujjatning jadval qismini quyidagi ma'lumotlar bilan to'ldiradi: «bo'nak» to'lov turi bo'yicha - ish haqidan bo'nak foizini to'ldiradi.

- Agar jadval qismi qo'lda to'ldirilsa, xodimni tanlashda «summa» maydonida summa avtomatik tarzda hisoblanmaydi; agar boshqa turdagi to'lovlar (bo'nakdan tashqari) - ish haqining tanlangan sanasi bo'yicha saldo tariqasida to'ldirilsa.

- Agar jadval qismi qo'lda to'ldirilsa, «summa» maydonida xodimni tanlashda ko'rsatilgan xodim bo'yicha summa tanlangan ish haqi schyotidan saldo avtomatik ravishda belgilanadi;

m) hujjatga sharhlar.

Jadval qismi:

a) tab. № - xodim tabelining raqami;

b) xodim (tanlov «Xodimlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

d) summa;

e) to'lov varianti - variantlarning qat'iy belgilangan ro'yxati («to'langan», «deponentga o'tkazilgan»).

Hujjat o'tkazmalarni shakllantirmaydi. O'tkazmalar «Kassa chiqim orderi» hujjat bilan shakllantiriladi.

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllari:

T53 to'lov qaydnomasi;

To'lov qaydnomasi

5.3. Kirim kassa orderi (valutali)

Kassaga valuta mablag'larining tushishi «Kirim kassa orderi (valutali)» hujjati orqali amalga oshiriladi. Hujjatda quyidagilar ko'rsatilgan:

a) hujjatning raqami;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlar nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) «schyotlar rejasi»da ro'yxatga olingan pul mablag'larini kassada hisobga olish schyoti (tanlov «5000» (valutali) schyotlar guruhidagi sub schyotlar ro'yxatidan kelib chiqib, amalga oshiriladi), qayd qilingan bo'yicha «5020» schyot;

f) valuta - pul mablag'larining kirimi amalga oshadigan valutaning nomi (tanlov «Valutalar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi), «Valutalar» ma'lumotlar registrida belgilangan kurs bo'yicha;

g) asos - pul kirimi amalga oshishi asosining ta'rifi;

h) harakatlanish turlari (vakillik hisob raqami va hisob raqam tahlilini to'ldirish variantlari keltirilgan qolip);

i) aloqa h/r - aloqalanuvchi schyot, korr. schyot;

j) subkonto 1, 2, 3 - schyot tahlili;

k) valuta summasi - valutada qabul qilib olinadigan summa;

l) kirim qilinadigan summa (milliy valutada);

m) qabul qilindi - pul kimdan qabul qilinganligiga ishora;

n) ilova - ushbu hujjat bo'yicha sharhlarni o'z ichiga oladi.

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

Dt	Subkonto	Kt schyoti	Subkonto	Valuta	Pul summasi	Valuta summasi	Izoh
Kassadagi pul mablag' lari hisobini yuritish schyoti	Subkonto	Aloqa	Subkonto	Valuta	Pul summasi	Valuta summasi	

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

- kassaning kirim orderi;
- hujjatning harakatlanishi.

5.4. Kirim kassa order

Kassaga pullarning tushishi «**Kirim kassa orderi**» hujjati ko'magida amalga oshiriladi. Hujjatda quyidagilar ko'rsatilgan:

- a) hujjat raqami;
- b) hujjat sanasi;

d) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlar nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) «schyotlar rejasi»da ro'yxatga olingan pul mablag'larini kassada hisobga olish schyoti (tanlov «5000» (valuta emas) schyotlar guruhidagi sub schyotlar ro'yxatidan kelib chiqib amalga oshiriladi). qayd qilingan bo'yicha «5010» schyot;

f) valuta – mazkur qator agarda «Korschyot» qatorida «Valutalar» ma'lumotlar registrida belgilangan kurs bo'yicha valuta schyoti ko'rsatilgan bo'lsa, aks etadi (tanlov «Valutalar» qo'llanmasidan amalga oshiriladi), «Valutalar» ma'lumotlar registrida belgilangan kurs bo'yicha;

g) asos – pul kirimining nima asosda amalga oshirilishi ta'riflab beriladi;

h) harakatlanish turi – tanlov «Pul mablag'lari harakati» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi;

i) aloqa h/r - aloqalanuvchi schyot;

j) subkonto 1, 2, 3 - schyot tahlili;

k) valuta summasi - valutadagi kirimlar. «Aloqa h/r» maydonida valuta hisob raqami tanlangan taqdirda ushbu maydonda tahrir qilish mumkin;

l) kirim qilinadigan pul summasi (milliy valutada);

m) qabul qilindi - pulning kimdan qabul qilinganligini ko'rsatish;

n) ilovada - ushbu hujjatga sharhlar keltirilgan.

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta summasi	Izoh
Kassadagi pul mablag'lari hisobini yuritish Schyoti	Pul mablag'lari harakati	Aloqa h/r	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta summasi	

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

- kassa kirim orderi;
- hujjatning harakatlanishi.

5.5. Chiqim kassa orderi (valutali)

Kassadan valuta mablag'larining berilishi «**Chiqim kassa orderi (valutali)**» hujjati asosida amalga oshiriladi. Hujjatda quyidagilar ko'rsatilgan:

- a) hujjatning raqami;
- b) hujjat sanasi;
- d) tashkilot — ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;
- e) «schyotlar rejasi»da ro'yxatga olingan pul mablag'larini kassada hisobga olish schyoti (tanlov «5000» (valutali) schyotlar guruhidagi sub schyotlar ro'yxatidan kelib chiqib, amalga oshiriladi), qayd qilingan bo'yicha «5020» schyot;
- f) valuta — «Valutalar» ma'lumotlar registrida belgilangan kurs bo'yicha kiritilgan qilinayotgan valutaning nomi (tanlov «Valutalar» qo'llanmasidan amalga oshiriladi), «Valutalar» ma'lumotlar registrida belgilangan kurs bo'yicha;
- g) harakatlanish turi — tanlov «Pul mablag'lari harakati» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi;
- h) korr. schyot — korrespondentlik schyoti;
- i) subkonto 1, 2, 3 — schyot analitikasi;
- j) pasport bo'yicha — pul agarda pasport asosida to'lanayotgan bo'lsa, pasport ma'lumotlari ko'rsatiladi;
- k) ilova — mazkur hujjatga oid izohlarni o'zida aks ettiradi.
- l) asos — pulning sarflanishini asoslaydigan bayon;
- m) valuta puli — valutada sarflanayotgan pul;
- n) summa — sarflanayotgan pul (milliy valutada)
- o) bermoq — pul kimga berilayapti.

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta summasi	Izoh
Aloqa	Subkonto	Kassadagi pul mablag'lari hisobini yuritish schyoti	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta summasi	

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

- kassaning chiqim orderi;
- hujjatning harakatlanishi.

5.6. Chiqim kassa orderi

Kassadan pulning berilishi «**Chiqim kassa orderi**» hujjati ko'magida amalga oshiriladi. Hujjatda quyidagilar keltirilgan:

- a) hujjatning raqami;
 - b) hujjat sanasi;
 - d) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;
 - e) to'lov qaydnomasi - to'lov qaydnomasini tanlashda avtomatik tarzda «summa», «aloqa h/r», «subkonto 1, 2, 3» maydonlari to'ldiriladi hamda «valuta summasi», «summa», «harakatlanish turi», «aloqa h/r subkonto 1, 2, 3» maydonlari yopiladi (tanlov «To'lov qaydnomasi» hujjatining ro'yxati shaklidan amalga oshiriladi);
 - f) «schyotlar rejasi»da ro'yxatga olingan pul mablag'larini kassada hisobga olish schyoti (tanlov «5000» (valuta emas) schyotlar guruhidagi sub schyotlar ro'yxatidan kelib chiqib, amalga oshiriladi), qayd qilingan bo'yicha «5010» schyot;
 - g) valuta – mazkur qator agarda «Korschyot» qatorida «Valutalar» ma'lumotlar registrida belgilangan kurs bo'yicha valuta schyoti ko'rsatilgan bo'lsa, aks etadi (tanlov «Valutalar» qo'llanmasidan amalga oshiriladi), «Valutalar» ma'lumotlar registrida belgilangan kurs bo'yicha;
 - h) xarakatlanish turi – tanlov «Pul mablag'lari harakati» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi;
 - i) aloqa schyoti - kassa schyotiga ega aloqalanuvchi schyot;
 - j) aloqa h/r korr. subkonto 1, 2, 3 - schyot tahlili;
 - k) pasport bo'yicha - agar summa pasport asosida berilsa, pasport ma'lumotlari ko'rsatiladi; k) ilova - ushbu hujjat uchun sharhlarni qamrab oladi;
 - l) asos – pulning sarflanishini asoslaydigan bayon;
 - m) valuta summasi - valutadagi xarajatlar miqdori. «Aloqalanuvchi schyot» maydonida valuta hisob raqami ko'rsatilgan taqdirda ushbu maydon aks ettiriladi;
 - n) xarajatlar summasi (milliy valutada);
 - o) berilsin - summa beriladigan shaxs.
- Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta summasi	Izoh
Aloqa x/r	Subkonto	Kassadagi pul mablag'lar hisobini yuritish shyoti	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta summasi	

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

- kassa chiqim ordeni;
- hujjatning harakatlanishi.

Tayanch so'zlar:

Terminal bo'yicha to'lov.

To'lov qaydnomasi.

Kirim kassa order (valutali).

Kirim kassa order.

Chiqim kassa ordeni (valutali).

Chiqim kassa ordeni.

VI mavzu. XIZMAT KO'RSATISH

6.1. Hisobvaraq-faktura

Xizmatlar realizatsiyasi «**Hisobvaraq-faktura**» hujjati asosida amalga oshiriladi. Hujjatda quyidagilar nazarda tutilgan:

a) hujjat raqami;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) schyot – xaridorning hisob raqami (tanlov «Schyotlar rejasi» ma'lumotnomasidan qayd qilinmasdan amalga oshiriladi. «4010» schyoti);

f) daromadlar hisobi – xizmatlarning realizatsiya qilinishidan olinadigan daromadlar (tanlov «Schyotlar rejasi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi, qayd qilinmasdan «9030» hisobi);

g) qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi (tanlov «Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi» ma'lumotnomasi asosida shakllanadigan ro'yxat orqali amalga oshiriladi);

h) shaxsiy hisob-kitob schyoti - tashkilotning hisob-kitob schyoti (tanlov «Shaxsiy hisob-kitob schyotlari» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

i) xaridor (tanlov «Kontragentlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

j) shartnoma (tanlov «Shartnomalar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

k) hisob-kitob schyoti - kontragentning hisob-kitob schyoti (tanlov «Kontragentning hisob-kitob schyotlari» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

l) asos - xizmatni realizatsiya qilish asosi; l) valuta - agar «schyot» maydonida yoki «shaxsiy hisob-kitob schyoti»da valuta schyoti ko'rsatilgan bo'lsa, u holda mazkur maydon ochiladi;

m) «tashkilotning SWIFTini ko'rsatish» belgisi -

«Xizmatlar ko'rsatish» hujjatining bosma shaklida tashkilotning SWIFTI aks etishini belgilaydi;

n) hujjatga sharhlar.

Jadval qismi:

a) TMZ (tanlov «Tovar-moddiy zaxiralar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

b) ko'rsatilgan xizmatlar summasi (QQSsiz);

d) QQS summasi;

e) QQS bilan - ko'rsatilgan xizmatlar summasi (QQS bilan);

f) valuta summasi - valutadagi summa.

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta summasi	Izoh
Xaridor shyoti	Subkonto	Daromadlar shyoti	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta summasi	
Xaridor shyoti	Subkonto	QQS hisobi shyoti	Soliqlar va ajratmalar (QQS)		QQS summasi	Valutadagi QQS summasi	

Bo'nakni hisoblash:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta summasi	Izoh
Xaridor tomonidan olingan shyotlar	Kontragent, shartnoma	Xaridor shyoti	Kontragent, shartnoma		Summa		Bo'nakni hisoblash summasi

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

- xizmatlar ko'rsatilishi;
- hujjatning harakatlanishi.

6.2. Boshqa tashkilotlar xizmati

Tashkilotga ko'rsatilgan xizmatlar «**Boshqa tashkilotlar xizmati**» hujjati ko'magida amalga oshiriladi. Hujjat quyidagilardan iborat:

a) hujjat raqami;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot - ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) QQS stavkasi (tanlov «Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi» ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi);

f) ishonchnoma – ta’minotchi tomonidan ko’rsatilgan xizmatlarni qabul qilib olish hujjati (tanlov «Ishonchnoma» hujjati ro’yxati shaklidan amalga oshiriladi);

g) ta’minotchini hisobga olish schyoti (tanlov «Schyotlar rejasi» ma’lumotnomasidan amalga oshiriladi);

h) ta’minotchi (tanlov «Kontragentlar» ma’lumotnomasidan amalga oshiriladi);

i) shartnoma (tanlov «Shartnomalar» ma’lumotnomasidan amalga oshiriladi);

j) ta’minotchining schyot-fakturasi (tanlov «Ta’minotchining schyot-fakturasi» hujjatining ro’yxati shaklidan amalga oshiriladi);

k) valuta - mazkur maydon, agar «schyot» maydonida valuta schyoti ko’rsatilgan bo’lsa aks ettiriladi (tanlov «Valutalar» ma’lumotnomasidan amalga oshiriladi);

l) hujjatga sharhlar.

Jadval qismi:

a) xizmat - xizmatning nomi;

b) xarajatlar schyoti - xizmatni hisobdan chiqarishda qo’llaniladigan schyot (tanlov «Schyotlar rejasi» ma’lumotnomasidan amalga oshiriladi);

d) xarajatlar subkontosi 1, 2, 3 - hisobning tahlili;

e) xarajatlar summasi;

f) QQS summasi;

g) xizmatning QQS bilan summasi;

h) valuta summasi.

Hujjatni to’ldirishda «Xizmatlar» jadvalidagi «QQS bilan»ning umumiy summasi xarajatlarning QQS bilan umumiy summasiga teng bo’lishi lozim.

Hujjat quyidagi o’tkazmalarni shakllantiradi:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta summasi	Izoh
Xarajatlar hisobi	Subkonto 1, 2, 3	Yetkazuvchining hisobi	Kontragent, shartnoma	Valuta	Summa	Valuta summasi	
QQS hisob schyoti	Soliq va o’tkazmalar	Yetkazuvchining hisobi	Kontragent, shartnoma	Valuta	QQS Summasi		

Avans hisobiga:

Dr	Subkonto	Kr	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta summasi	Izoh
Yetkazuv-chining hisobi	Kontragent, shartnoma	Yetkazuv-chi hisobi uchun avans schyoti	Kontr-agent, shartnoma	Valuta	Summa	Valuta summasi	Avans hisoblash summasi

Hujjatning bosma shakllari:

- hujjatning harakatlanishi.

6.3. To'lov schyoti

Xaridorlarga to'lov uchun schyotni taqdim etish **«To'lov schyoti»** hujjati asosida shakllantiriladi. Hujjat quyidagilardan iborat:

a) hujjat raqami;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot — ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi (tanlov «Qo'shilgan qiymat solig'i» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

f) kontragent — xaridorning nomi (tanlov «Kontragentlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

g) asos - shartnoma (tanlov «Shartnomalar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

h) kontragentning hisob varag'i (tanlov «Kontragentlarning hisob varaqalari» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

i) tashkilotning hisob raqami (tanlov «Shaxsiy hisob-kitob schyoti» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

j) valuta — valutaning nomi (tanlov «Valutalar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

k) hujjatga sharhlar.

Jadval qismi:

a) nomi - TMZning nomi (tanlov «Tovar-moddiy zaxiralar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

b) o'lchov birligi - TMZ nomi ko'rsatilgandan keyin mazkur maydon avtomatik tarzda to'ldiriladi;

d) summa;

e) valutadagi summa;

- f) QQS summasi;
 - g) valutadagi QQS summasi;
 - h) QQS bilan summasi;
 - i) QQS bilan valutadagi summasi.
- Hujjat o'tkazmalarni shakllantirmaydi.
Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:
- to'lov uchun hisob.

6.4. Terminal bo'yicha to'lov

Plastik kartochkalar orqali o'tkaziladigan to'lovlarni qayd qilish uchun «Terminal bo'yicha to'lov» hujjati maydonidan foydalaniladi. Hujjat qo'lda to'ldiriladi va terminal orqali to'lovlar tushumini topishni yengillashdiradi. Ushbu hujjatda qayd qilingan mablag'lar «Yagona soliq to'lovi» hisobotida aks etmaydi

- a) hujjatning raqami;
- b) hujjatning sanasi;
- d) tashkilot — ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;
- e) «Batafsil» bayroqchasi har bir yozuv uchun ma'lumotlarni alohida kiritishni belgilaydi. Agarda hujjatning asosiy qismidagi «Faoliyat turi», «Daromad schyotlari» qatoridagi «Ha» va «Qo'shimchalar» varag'idagi «Subkonto 1», «Subkonto 2», «Subkonto 3» daromadlar schyotlari analitikasida o'zgartirib bo'lmaydigan holga kelsa, jadval qismida o'zgartirib bo'ladi. Qator qo'shayotganda agarda «Batafsil» bayroqchasi o'rnatilmagan bo'lsa, ko'rinmas qatorlar uchun ma'lumotlar shapkadani olib to'ldiriladi (shapkadagi qiymatlar o'zgarib ko'rinmas qatorlarning jadvali qismida yangi qiymatlar bilan o'zgaradi). Agarda «Yo'q» bo'lsa, foydalanuvchi har bir qator uchun barcha ma'lumotlarni alohida-alohida ko'rsatadi;

- f) faoliyat turi;
- g) daromad schyotlari — «5710» schyot uchun aloqa (korr.) schyoti.

Agarda «Batafsil» bayroqchasi o'chirilgan bo'lsa, «Asosiy»ning jadvali qismi:

a) nomenklatura – tanlov tovar-material zaxiralar qo‘llanmasidan amalga oshiriladi (to‘lov amalga oshirilayotgan xizmat yoki tovarni qo‘shimcha ravishda ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan);

b) pul – terminal bo‘yicha tushum qilinib ro‘yxatga olinayotgan pul;

d) «...dan qabul qilingan» – hujjatga izoh beradigan kimdan qabul qilinganligini ko‘rsatuvchi qator.

Agarda «Batafsil» bayroqchasi yoqilgan bo‘lsa, «Asosiy»ning jadvali qismi:

a) faoliyat turi – tanlov faoliyat turi qo‘llanmasidan amalga oshiriladi (qayd qilingan bo‘yicha asosiy faoliyat turi). («Batafsil» bayroqchasi yoqilganda o‘zgartirish mumkin);

b) nomenklatura – tanlov tovar-material zaxiralar qo‘llanmasidan amalga oshiriladi (to‘lov amalga oshirilayotgan xizmat yoki tovarni qo‘shimcha ravishda ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan);

d) pul – terminal bo‘yicha tushum qilinib ro‘yxatga olinayotgan pul;

e) «...dan qabul qilingan» – hujjatga izoh beradigan kimdan qabul qilinganligini ko‘rsatuvchi qator;

f) daromadlar schyotlari – qayd qilingan bo‘yicha faoliyat turidan kelib chiqib schyot tanlanadi, ammo bu qator tahrir qilinadi («Batafsil» bayroqchasi yoqilganda o‘zgartirish mumkin).

g) subkonto 1- daromadlar schyotlari analitikasi («Batafsil» bayroqchasi yoqilganda o‘zgartirish mumkin);

h) subkonto 2- daromadlar schyotlari analitikasi («Batafsil» bayroqchasi yoqilganda o‘zgartirish mumkin);

i) subkonto 3- daromadlar schyotlari analitikasi («Batafsil» bayroqchasi yoqilganda o‘zgartirish mumkin).

Jadval qismi – «Qo‘shimcha»

a) yo‘ldagi mablag‘lar schyoti - schyot «5710», yo‘ldagi pul mablag‘ (o‘tkazma) larini hisobi schyoti shartli ravishda o‘rnatilgan;

b) bizning hisobraqam - hisob-kitob raqami tanlovi pul mablag‘i tushayotgan hisob-kitob raqamidir;

- d) subkont 1-daromad schyotining tahlili («Batafsil» belgisini qo‘ymaganda kirish mumkin);
- e) subkont 2-daromad schyotining tahlili («Batafsil» belgisini qo‘ymaganda kirish mumkin);
- f) subkont 3-daromad schyotining tahlili («Batafsil» belgisini qo‘ymaganda kirish mumkin).

Hujjat quyidagi o‘tkazmalarni shakllantiradi:

Dt	Subkont	Kt	Subkont	Summa	Izoh
Yo‘ldagi pul mablag‘ (o‘tkazma)-lari	Hisob-kitob schyoti	Daromadlar schyoti	Subkont 1, Subkont 2 Subkont 3	Summa	

Hujjatning bosma shakli:

- hujjat harakati.

Tayanch so‘zlar:

Hisobvaraqa-faktura.

Boshqa tashkilotlar xizmati.

To‘lov schyoti.

Terminal bo‘yicha to‘lov.

VII mavzu. KADRLAR BO'LIMI

7.1. Xodimni o'tkazish

Xodimni boshqa ishga o'tkazish, lavozimi, ish grafigi yoki bo'limi o'zgarganda «Xodimni o'tkazish» hujjati tuziladi, u tashkilotda xodim lavozimini o'zgarishini qayd qilishga xizmat qiladi. Hujjatda quyidagilar ko'rsatiladi:

a) hujjat raqami;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot — ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) lavozimi o'zgaradigan xodim (tanlov «Xodimlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

f) ishga qabul qilindi - xodim ishga qabul qilinganligini ko'rsatuvchi «Ishga qabul qilish» hujjati (tanlov «Ishga qabul qilish» hujjati asosida shakllanadigan tushib qoluvchi ro'yxat orqali amalga oshiriladi).

Yangi ma'lumotlar:

a) xodim o'tkaziladigan bo'lim (tanlov «Bo'limlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

b) xodim o'tkaziladigan lavozim (tanlov «shtatlar ro'yxati» ma'lumotlari registri asosida lavozimlar ro'yxatidan amalga oshiriladi);

d) ish vaqtining grafigi - lavozim ko'rsatilgandan keyin mazkur maydon avtomatik tarzda to'ldiriladi (tanlov muayyan lavozim bo'yicha tashkilotdagi ish grafigi turlari asosida ro'yxatdan amalga oshiriladi);

e) xodim kategoriyasi - lavozim ko'rsatilgandan keyin mazkur maydon avtomatik tarzda to'ldiriladi;

f) maosh - lavozim ko'rsatilgandan keyin mazkur maydon avtomatik tarzda to'ldiriladi;

g) stavka - tashkilotda xodimning ishi o'zgargandan keyin unga belgilangan stavkaning miqdori; oldingi ma'lumotlar (mazkur ustun tahrir qilinmaydi, unda xodimning ishi o'zgarishidan oldingi ma'lumotlar aks ettiriladi):

Hujjat o'tkazmalarni shakllantirmaydi. «Kadrlar bo'limi» ma'lumotlar registriga qaydlar kiritiladi.

7.2. Ishga qabul qilish

Yangi xodimlarni ishga olish «**Ishga qabul qilish**» hujjati ko'magida amalga oshiriladi. Hujjat quyidagilarni aks ettiradi:

«Asosiy» varag'i:

a) hujjat raqami;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) ishga qabul qilinayotgan xodim (tanlov «Xodimlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

f) xodim ishga olinadigan bo'lim (tanlov «Bo'limlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

g) xodim ishga olinadigan lavozim (tanlov «Shtatlar jadvali» ma'lumotnomasi registri asosida shakllanuvchi lavozimlar ro'yxati asosida amalga oshiriladi);

h) ish vaqti grafigi - lavozim ko'rsatilgandan keyin mazkur maydon avtomatik tarzda to'ldiriladi (tanlov tashkilotdagi ish grafiklarining turlari asosida shakllanuvchi va tanlab olingan lavozimga

taalluqli ro'yxat asosida amalga oshiriladi);

i) xodim kategoriyasi - lavozim ko'rsatilgandan keyin mazkur maydon avtomatik tarzda to'ldiriladi;

j) maosh - lavozim ko'rsatilgandan keyin mazkur maydon avtomatik tarzda to'ldiriladi;

k) Stavka - xodimni ishga qabul qilishda tashkilot tomonidan unga belgilangan stavka miqdori;

l) «Fuqarolik-huquqiy shartnomasi bo'yicha» belgisi - xodimning fuqarolik huquqiy shartnoma asosida ishga qabul qilinganligini bildiradi. Ushbu belgi «xodim» maydoni to'ldirilgan taqdirda aks ettiriladi;

m) «Kasanachi» belgisi - xodimning uyda ish bilan band ekanligini ko'rsatadi;

n) hujjatga sharhlar.

«Hisob-kitob turlari» varag'i:

a) «To'ldirish» tugmasi - «Asosiy hisob-kitob turlari» ma'lumotnomasidan hujjatning jadval qismini hisob turlari bilan to'ldiradi (jadval qismi qayd qilinmasdan to'ldirilgan).

Jadval qismi:

a) hisob-kitob turlari - hisob-kitob turlarining nomi (tanlov «Hisob-kitob turlari» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

b) taqsimlash usullari (tanlov «Taqsimlash yo'llari» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

d) haqiqiy - mazkur hisob-kitobning haqiqiy ekanligini ko'rsatadi;

e) davrning boshlanishi - hisob-kitobning boshlanish sanasi;

f) davrning oxiri - hisob-kitobning tugash sanasi;

g) foizi - hisob-kitobni amalga oshirish davrida foydalaniladigan foiz;

h) summasi - hisob-kitobni amalga oshirish davrida foydalaniladigan summa;

i) lavozim bo'yicha - agar «ha» bo'lsa, bu xodimning har bir lavozimida bir hisob-kitob turini tashkil qilishga olib keladi («Maoshni hisob-kitob qilish» hujjatini to'ldirish paytida).

Hujjat o'tkazmalarni shakllantirmaydi. «Kadrlar bo'limi» va «Hisobning rejali turlari» ma'lumot registrlariga qaydlar kiritiladi.

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

- ishga qabul qilinganlik haqida buyruq;
- shaxsiy varaqa;
- hujjatning harakatlanishi.

7.3. Tabel

Tashkilotda ishlagan vaqt tabelini to'ldirish «**Tabel**» hujjati ko'magida amalga oshiriladi. Hujjat quyidagilardan iborat:

a) hujjat raqami;

b) hujjat sanasi - ma'lumotlar to'ldiriladigan oyni belgilab beradi;

d) tashkilot - ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) tabel to'ldiriladigan bo'lim;

f) «to'ldirish» tugmasi - hujjat sanasida belgilangan bo'lim hisobida turuvchi xodimlar hujjatining jadval qismini to'ldiradi;

g) «Barcha ustunlarni ko'rsatish» tugmasi - «kasallik varaqasi bo'yicha kunlar», «ta'til kunlari», «ish grafigi», «stavka», «bo'lim», «lavozim» ustunlarini aks ettiradi;

h) «Hisoblash» tugmasi - kasallik varaqasi kunlari, ta'til kunlarini hisoblaydi;

i) Hujjatga sharhlar.

Jadval qismi:

a) tab. № - xodimning tabeldagi nomeri;

b) xodim;

d) fakt. kunlar - joriy oyda amalda ishlagan kunlar;

e) fakt. soatlar - joriy oyda amalda ishlagan soatlar;

f) dam olish va bayram soatlari - xodimlar qo'shimcha ishlagan bayram va dam olish soatlari;

g) tungi soatlar - xodim qo'shimcha ishlagan tungi soatlarning miqdori;

h) kasallik varaqasi bo'yicha kunlar - xodimning ish grafigiga tushuvchi kasallik varaqasi bo'yicha kunlar miqdori;

i) ta'til bo'yicha kunlar - xodimning ish grafigiga tushuvchi ta'til kunlarining miqdori;

j) berilgan oydagi ishining boshlanish sanasi;

k) berilgan oydagi ishining tugashi sanasi;

l) xodimning joriy oydagi ish grafigi;

m) hujjat - mazkur xodim uning asosida ishga qabul qilingan «Ishga qabul qilish» hujjati;

n) stavka - joriy oyda tashkilotda xodim egallab turgan stavka miqdori;

o) bo'lim - xodim ishlagan bo'lim;

p) lavozim - xodim egallab turgan lavozim.

Hujjat o'tkazmalarni shakllantirmaydi. «Tabel» ma'lumotlari registrida yozuvlar qilinadi.

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

- tabel - hujjatlar shabloni «Tabel»

7.4. Xodimning ishdan bo'shashi

Xodimning tashkilotda ishdan bo'shatilishi «Xodimning bo'shashi» hujjati ko'magida amalga oshiriladi. Hujjatda quyidagilar ifodalanadi:

a) hujjat raqami;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot — ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) ishdan bo'shatilayotgan xodim (tanlov korxonasi shartida mavjud xodimlarni «Ishga qabul qilish» hujjati asosida shakllanadigan ro'yxatga binoan amalga oshiriladi);

f) ishga qabul qilindi - xodimni ishga qabul qilinganligini ko'rsatuvchi «Ishga qabul qilish» hujjati (tanlov «Ishga qabul qilish» hujjati asosida shakllanadigan ro'yxat orqali amalga oshiriladi);

g) ishdan bo'shatish sababi - variantlarning qat'iy belgilangan ro'yxati («O'z xohishi bilan», «modda bo'yicha», «qisqartirish bo'yicha»).

Xodimning bo'shatilishidan oldingi ma'lumotlari:

a) bo'limi;

b) lavozimi;

d) ish grafigi;

e) kategoriyasi;

f) maoshi;

g) stavkasi;

h) hujjatga sharhlar.

Hujjat o'tkazmalarni shakllantirmaydi. «Kadrlar bo'limi» va «Hisobning reja turlari» ma'lumotlari registrida yozuvlar qilinadi.

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

- mehnat shartnomasining to'xtatilishi haqidagi buyruq;
- hujjatning harakatlanishi.

Tayanch so'zlar:

Xodimni o'tkazish.

Ishga qabul qilish.

Tabel.

Xodimning bo'shashi.

VIII mavzu. ISHLAB CHIQUARISH

8.1. TMZ kirim yuk xati

TMZni xarid qilish «**TMZ kirim yuk xati**» ko'magida amalga oshiriladi. Hujjat quyidagilardan iborat:

a) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

b) hujjat raqami;

d) hujjat sanasi;

e) ta'minotchining hisob raqami (tanlov «Schyotlar rejasi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi, qayd qilinmasdan «6010»);

f) subkonto 1, 2, 3 - hisob raqam tahlili;

g) saqlash joyi, mazkur aktivning saqlash joyidir (tanlov «Saqlash joyi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

h) «Bu chakana» belgisi - tovar-moddiy zaxiralarning chakana sotuvda bo'lishini aniqlaydi;

i) BYUD (bojxona yuk deklaratsiyasi);

j) valuta - agar «ta'minotchi schyoti» maydonida valuta hisobi ko'rsatilgan bo'lsa, mazkur maydon aks ettiriladi (tanlov «Valutalar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

k) ishonchnoma - ta'minotchidan TMZni olish hujjati (tanlov «Ishonchnoma» hujjati ro'yxati shaklidan amalga oshiriladi);

l) ta'minotchining schyot-fakturasi (tanlov «Ta'minotchining schyot-fakturasi» ro'yxati shaklidan amalga oshiriladi);

m) «Xarajatlar uchun» belgisi - kirim qilinayotgan TMZni shu davrning o'zida korxonaning xarajatlari sifatida tan olinishi yoki olinmasligini anglatadi. Belgi yoqilgan bo'lsa, quyidagi maydonlar aks ettiriladi:

- Xarajat schyotlari (tanlov «Schyotlar rejasi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

- Xarajat schyotlari subkontosi 1, 2, 3 - xarajatlar hisobi tahlili;

n) hujjatga sharhlar.

«Sotib olish bo'yicha qo'shimcha xarajatlar» varag'i:

a) amalga oshirilgan qo'shimcha xarajatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining miqdori (tanlov «Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi» ma'lumotnomasi asosida shakllanadi);

b) qo'shimcha xarajat (tanlov «Qo'shimcha xarajatlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

d) xarajat schyotlari (tanlov «Schyotlar rejasi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

e) subkonto 1, 2, 3 - hisob raqamining tahlili;

f) qo'shimcha xarajatlar miqdori;

g) QQS summasi (qo'shimcha xarajatlar bo'yicha);

h) qo'shimcha xarajatlar summasi (QQS bilan);

i) qo'shimcha xarajatlarning valutatdagi summasi.

«Asosiy» varag'i:

a) «Qo'shimcha xarajatlarni taqsimlash» tugmasi - qo'shimcha xarajatlarni «Asosiy» varaqning jadval qismida keltirilgan TMZ tannarxiga mutanosib tarzda taqsimlaydi;

b) QQS stavkasi (tanlov «QQS stavkasi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

d) tovar-moddiy zaxiralar (tanlov «Tovar-moddiy zaxiralar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

e) tovar-moddiy zaxiralar hisobi schyoti (tanlov «Schyotlar rejasi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

f) tannarxni valutatdagi bahosi - tannarxni valutatdagi bahosini bildiradi

g) tannarxni bahosi - tannarxni bahosini bildiradi;

h) xarajatlarni hisobga olgan holdagi bahosi - qo'shimcha xarajatlar bilan birga;

i) qo'yilgan ustama baho bilan - qo'lda kiritiladi yoki «chakana baholar» maydonidan «Realizatsiya qilish baholarini aniqlash» hujjati orqali to'ldiriladi, agar «Realizatsiya qilish baholarini aniqlash» hujjatida mazkur TMZ bo'yicha chakana baho ko'rsatilgan bo'lsa hamda saqlash joyi «Tovar-moddiy zaxiralarning kirishi» hujjatining «saqlash joyi» maydoniga mos kelsa;

j) kirim qilinayotgan TMZ soni;

k) tannarxi - tannarxining qiymati;

l) aksiz solig'i summasi - faqat aksizga oid xomashyo uchun aksiz solig'i summasi ko'rsatiladi, «Chakana savdo» bayroqchasi o'chirilgan bo'lsa, o'zgartirish mumkin;

- m) QQS miqdori - tannarxga qo'shilmaydi;
- n) QQS bilan;
- o) tannarxning valutadagi qiymati - tannarxning valuta-dagi qiymatini ko'rsatadi;
- p) qo'shimcha xarajatlar miqdori - qo'shimcha xarajatlarning taqsimlangan qiymati;
- q) yakuniy summa - qo'shimcha xarajatlar qiymati kiritilgan summa;
- r) jami QQS - jami QQS qo'shimcha xarajatlarni hisobga olgan holda;
- s) kirim qilinayotgan TMZ miqdori (QQS bilan) - qo'shimcha xarajatlarni inobatga olgan holda;
- t) ustama bahoni inobatga olgan holdagi summasi;
- u) valutadagi yakuniy qiymati.

Hujjat quyidagi o'tkazmalarini shakllantiradi:

1) «baholar usuli»:

a) Agar «bu chakana» belgisi o'chirilgan bo'lsa:

DI	Subkonto	KI	Subkonto	Valuta Valuta	Summa	Valuta Summasi	Izoh
Tovar- moddiy zaxiralarni hisobga olish shyoti	TMZ, saqlash joyi, baholar	Ta'minotchi shyoti	Kontragent, shartnoma	Valuta	Tannarxi qiymati (yakuniy summa), soni	Valuta summasi	
QQS hisobi shyoti	Soliqlar va ajratmalar	Ta'minotchi shyoti	Kontragent, shartnoma	Valuta	QQS miqdori	Valuta summasi	QQS
TMZ larni hisobga olish shyoti	TMZ, saqlash joyi, baholar	Qo'shimcha xarajat shyoti	Subkonto	Valuta	Qo'shim- cha xarajat miqdori	Valuta summasi	Qo'shim- cha xarajatlar
Aksiz solig' ini li- sobga olish shyoti	Soliqlar va ajratmalar	Yetkazib beruvchi shyoti	Kontragent, shartnomasi	Valuta	Aksiz solig'i summasi	Valuta summasi	Aksiz solig'i
QQSni hisobga olish shyoti	Soliqlar va ajratmalar	Qo'shimcha xarajat hisobi shyoti	Subkonto	Valuta	Qo'shim- cha xara- jatlar miqdori bo'yicha QQS	Valuta summasi	Hisob- langan QQS
Xarajatlar shyoti	Subkonto	TMZ hisobi shyoti	TMZ, saqlash joyi, baholar		Summa, miqdori		Xarajat- larga
Ta'minot- chi shyoti	Kontragent, shartnoma	Ta'minotchiga to'langan bo'nak shyoti	Kontragent, shartnoma		Miqdori		Bo'nakni hisoblash miqdori

b) agar «bu chakana» belgisi yoqilgan bo'lsa:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta summasi	Izoh
TMZ hisobini yuritish schyoti	TMZ, saqlash joyi, baholar	Ta'minot-chi schyoti	Kontragent, shartnoma	Valuta	Tannaxi (yakuniy summa), miqdori	Valuta miqdori	
TMZ hisobini yuritish schyoti	TMZ, saqlash joyi, baholar	Ustamani hisobga olish schyoti (2980)	TMZ, saqlash joyi, baholar		Ustama bilan miqdori - tannaxi (yakuniy summa), miqdori		Ustama miqdori
QQSni hisobga olish schyoti	Soliqlar va ajratmalar	Ta'minot-chi schyoti	Kontragent, shartnoma	Valuta	QQS miqdori	Valuta miqdori	QQS
TMZ hisobini yuritish schyoti	TMZ, saqlash joyi, baholar	Qo'shimcha xarajat hisobini kiritish schyoti	Subkonto	Valuta	Qo'shimcha xarajat miqdori	Valuta miqdori	Qo'shimcha xarajatlari
DSni XQQ hisobga olish schyoti	Soliqlar va ajratmalar	Qo'shimcha xarajat hisobini yuritish schyoti	Subkonto	Valuta	Qo'shimcha xarajatlari bo'yicha QQS miqdori	Valuta miqdori	Hisobga olinadigan QQS miqdori
Xarajatlari schyoti	Subkonto	TMZ hisobi schyoti	TMZ, saqlash joyi, baholar		Summasi, soni		Xarajatlarga
Ta'minot-chi schyoti	Kontragent, shartnoma	Ta'minot-chi bo'yicha bo'nakni hisoblash	Kontragent, shartnoma		Summasi		Bo'nakni hisobga olish

2) «FIFO/AVECO usuli» («AVECO»ga subkonto «partiyalab» mavjud bo'lmasa):

a) agar «bu chakana» belgisi o'chirilgan bo'lsa:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta	Izoh
TMZlar hisobini yuritish schyoti	Tovar-moddiy zaxiralari, saqlash joyi, tovar partiyasi	Ta'minot-chi schyoti	Kontragent, shartnoma	Valuta	Tannaxi (yakuniy summasi), miqdori	Valuta summasi	
Aksiz solig'ini hisobga olish schyoti	Soliqlar va ajratmalar	Yetkazib beruvchi schyoti	Kontragent, shartnomasi	Valuta	Aksiz solig'i summasi	Valuta summasi	Aksiz solig'i

QQSni hisobga olish schyoti	Soliqlar va ajratmalar	Ta'minotchi schyoti	Kontragent, shartnoma	Valuta	QQS summasi	Valuta summasi	QQS
TMZlar hisobini yuritish schyoti	TMZ, saqlash joyi, tovar partiyasi	Qo'shimcha xarajatlar hisobini yuritish schyoti	Subkonto	Valuta	Qo'shimcha xarajatlar summasi	Valuta summasi	Qo'shimcha xarajat
QQSni	Soliqlar va ajratmalar	Qo'shimcha xarajatlar yuritish hisobini yuritish schyoti	Subkonto	Valuta	Qo'shimcha xarajatlar	Valuta summasi	Hisobga
Xarajatlar schyoti	Subkonto	TMZlar hisobini yuritish schyoti	Tovar-moddiy zaxiralari, saqlash joyi, tovar		Summasi, soni		Xarajatlarga
Ta'minotchi schyoti	Kontragent, shartnoma	bo'lmak hisoblash	Kontragent, shartnoma		Summasi		Hisobga olish summasi

b) agar «bu chakana» belgisi yoqilgan bo'lsa:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta summasi	Izoh
His TMZ i yuritish schyoti	Tovar-moddiy zaxiralari, saqlash joyi, tovar partiyasi	Ta'minotchi hisob raqami	Kontragent, shartnoma	Valuta	Tannaxi qiymati (yakuniy summa), miqdori	Valuta summasi	
TMZ Hisobini yuritish schyoti	TMZ, saqlash joyi, tovar partiyasi	Ustamani hisobga olish schyoti (2980)	TMZ, saqlash joyi, tovar partiyasi		Ustama bilan miqdori - tannaxi (yakuniy summa), miqdori		Ustama summasi
QQSni hisobga olish schyoti	Soliqlar va ajratmalar	Ta'minotchi schyoti	Kontragent, shartnoma	Valuta	QQS miqdori	Valuta miqdori	QQS
TMZ hisobini yuritish	TMZ, saqlash joyi, tovar partiyasi	Qo'shimcha xarajatlar yuritish schyoti	Subkonto	Valuta	Qo'shimcha xarajatlari summasi	Valuta summasi	Qo'shimcha xarajatlar
QQSni olish schyoti	S ajratmalar	Qo'shimcha hisobini yuritish schyoti	Subkonto	Valuta	Qo'shimcha bo'yicha QQS miqdori	summasi	Hisobga QQS miqdori

Xarajatlari schyoti	Subkonto	TMZ hisobini yuritish schyoti	TMZ. saqlash joyi, tovar partiyasi		Summasi, miqdori		Xarajatlarga
Ta'minot- chi schyoti	Kontra- gent, shartnoma	Ta'minot- chi bo'yicha bo'nakni hisoblash	Kontra- gent, shartnoma		Summasi		Bo'nakni hisobga olish summasi

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

- tovar-moddiy zaxiralar haqiqiy qiymatining hisob-kitobi;
- kirim hujjati muhri;
- sotib olish akti;
- avans hisoboti;
- hujjatning harakatlanishi.

8.2. Mahsulotga bo'lgan xarajatlarning me'yori

«Mahsulotga bo'lgan xarajatlarning me'yori» hujjati orqali mahsulot xarajatiga bo'lgan norma o'rnatiladi. Hujjat quyidagini o'z ichiga olgan:

a) hujjat raqami;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot — ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) mahsulot («Tovar-mahsulot zaxiralari» ma'lumotnomasi orqali amalga oshiriladi);

f) chiqish normasi — o'lchov birligi (1kg, 100 kg va h.z.) tayyor mahsulot (yarimtayyor mahsulot) orqali materialga bo'lgan xarajat normasi ma'lum bo'ladi;

g) Hujjatga sharhlar.

Jadval qismi:

a) material (Uni tanlash «Tovar-mahsulot zaxiralari» ma'lumotnomasi orqali amalga oshiriladi)

b) miqdor — zarur mahsulot (nomenklatura) miqdori;

d) o'zgartiriladigan mahsulot (Uni tanlash «Tovar-mahsulot zaxiralari» ma'lumotnomasi orqali amalga oshiriladi — o'zgaradigan nomenklatura mahsulotiga ko'rsatadi.

Qo'shimcha ravishda:

a) bir hujjat «Mahsulotga bo'lgan xarajat normasi» hujjatining keyingi variant normasini belgilaydi.

b) so'nggi varinant «TMZ» o'chirishning qaysi normasidanligini belgilaydi;

d) «Yangilashni yashirish» tugmasi — yangilashni ko'rsatuvchi qatorni yashirish. («Yangilash materiali» to'ldirilgan maydon qatori bilan).

Hujjat o'tkazmalarni shakllantirmaydi.

8.3. Ishlab chiqarish talablari

«Ishlab chiqarish talablari» hujjati mahsulot ishlab chiqarishga bo'lgan xarajat normasi bo'yicha materiallarni ko'chirish ro'yxati uchun, shuningdek, yarimtayyor mahsulotlarni asosiy ishlab chiqarish uchun jo'natish, ishning kamchiliklarini tuzatish uchun foydalaniladi. Hujjat quyidagilarni o'z ichiga olgan:

a) hujjat raqami;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot — ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) mahsulot (Uni tanlash «Tovar-material zaxiralari» ma'lumotnomasi orqali amalga oshiriladi)

f) chiqish miqdori (Tayyor mahsulot miqdori) — mazkur hujjat ma'lumotlari shakllanayotgan miqdor

g) ko'chirish moddasi (Uni tanlash «Xarajatlar moddasi» ma'lumotnomasi orqali amalga oshirilgan.— qaysi xarajatlar moddasi orqali materiallar ko'chirilishini ko'rsatadi.;

h) bo'linma (Uni tanlash «Bo'linma» ma'lumotnomasi orqali amalga oshiriladi) — qaysi bo'linmaga materiallar ko'chirilishini ko'rsatadi;

i) saqlash joyi (Uni tanlash «Saqlash joyi» ma'lumotnomasi orqali amalga oshiriladi);

j) hujjatga sharhlar.

Jadval qismi:

a) «*» (O'zgartirishni tanlash) — Agar bayroqni o'rnatasa,

«Mahsulotga bo'lgan xarajat normasi» hujjatida ko'rsatilgan ko'chirishlarni tanlash taqdim etiladi.

b) nomenklatura (Uni tanlash «Tovar-material zaxiralari» ma'lumotnomasi orqali amalga oshiriladi). O'zgartirish mumkin bo'lgan materiallar belgi bilan belgilanadi («*» kolonkasida), ular uchun o'zgartirish mumkin bo'lgan ro'yxat chiqariladi, o'zgartirishni tanlaganda «qoldiqlarni yangilash» tugmasini tanlash zarur;

d) hisobot schyoti (nomenklatura hisob schyoti);

e) saqlash joyi (Uni tanlash «Saqlash joyi» ma'lumotnomasi orqali amalga oshiriladi);

f) miqdor bo'yicha qoldiqlar – nomenklatura bo'yicha qoldiq aks ettiriladi;

g) miqdori – ko'chirilinayotgan nomenklatura miqdori;

h) narxi («narxlar bo'yicha» faqat TMTs ko'chirish usuli uchun ishlatiladi. Materiallarga ko'chirishlarni ishlatish uchun, mazkur ko'chirishning narxini tanlash zarur, so'ngra «qoldiqlarni yangilash» tugmasini bosish kerak;

i) summasi (mazkur hujjatni o'tkazgandan so'ng to'ldiriladi).

Qo'shimcha ravishda:

a) «Xarajatlar normasi bo'yicha» tugmasi hujjat ma'lumotlari bilan unda ko'rsatilgan miqdor asosi boyicha «Mahsulotga bo'lgan xarajatlar»hujjatini to'ldiradi;

b) «Qoldiqlarni yangilash» tugmasi - miqdor bo'yicha qoldiqlarni yangilaydi.

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

1) agar «Baholash usuli» bo'lsa:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Miqdor	Summa
Ishlab chiqarish schyoti	Mahsulot ko'chirish moddasi Bo'linma	Hisobot schyoti (nomenklaturalar)	Nomenklatura Saqlash joyi Narx	Miqdor	Summa

2) Agar «FIFO usuli» bo'lsa:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Miqdor	Summa
Ishlab chiqarish schyoti	Mahsulot ko'chirish moddasi Bo'linma	Hisobot schyoti (nomenklaturalar)	Nomenklatura Saqlash joyi «Partiya»	Miqdor	Summa

3) Agar «AVECO usuli» bo'lsa:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Miqdor	Summa
Ishlab chiqarish schyoti	Mahsulot ko'chirish nuqtdasi Bo'linma	Hisobot schyoti (nomenklaturalar)	Nomenklatura Saqlash joyi	Miqdor	Summa

8.4. Bevosita xarajatlarni taqsimlash

«Bevosita xarajatlarni taqsimlash» hujjati yordamida ishlab chiqilgan mahsulotga taqsimlanmagan umumiy summa xarajatlar (qo'shimcha xarajatlar) taqsimlanishi amalga oshiriladi. Hujjat quyidagilarni o'z ichiga olgan

a) hujjat raqami;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) qo'shimcha xarajatlarni taqsimlash usuli (summasi, miqdori, koeffitsiyenti bo'yicha);

f) hujjatga sharhlar.

Jadval qismi(asosiysi):

a) mahsulot (tanlov «Tovar-material zaxiralari» qo'llanmasidan amalga oshiriladi);

b) bo'lim (tanlov «Bo'lim» qo'llanmasidan amalga oshiriladi);

d) xarajatlar schyoti («Asosiy ishlab chiqarish», «Yordamchi ishlab chiqarish», «Umumishlab chiqarish xarajatlari»);

e) subkonto 1,2,3 «Xarajatlar bo'limlari» – tanlov «Xarajatlar bo'limlari» qo'llanmasi asosida amalga oshiriladi. (agarda «Taqsimlash usullari» qo'llanmasida taqsimlash schyoti ro'yxatga unga zarur «Subkonto 1,2,3» «Xarajatlar bo'limlari» (maosh, AV va NMA amortizatsiyasi ajratmalari) ko'rsatilgan holda bo'lsa, bilvosita chiqimlar summasini xarajatlar bo'limlari bo'yicha ajratilishi bilan avtomatik to'ldiriladi

f) Summa;

Jadval qismi (ko'rsatkichlar):

a) bo'linma (Uni tanlash «Bo'linma» ma'lumotnomasi yordamida amalga oshiriladi);

b) mahsulot (uni tanlash «Tovar-material zaxiralari» ma'lumotnomasi yordamida amalga oshiriladi.);

d) miqdor;

e) summa;

f) koeffitsiyent – taqsimlash koeffitsiyenti.

Qo'shimcha:

a) «ko'rsatkichlar» jadval qismidagi «To'ldirish» tugmasi – berilgan oy uchun «Omborga mahsulot o'tkazish» hujjati asosida to'ldiriladi, summa saldo hisobidagi 2010 «asosiy mahsulot» bo'yicha to'ldiriladi. (o'tkazilmagan hujjat uchun ishlaydi);

b) qushimcha xarajatlarni tanlangan usuli bo'yicha avtomatik taqsimlash uchun «ko'rsatkichlar» jadvalidan olingan ma'lumotlar;

d) «asosiy» jadval qismidagi «To'ldirish» tugmasi – taqsimlash usuli bo'yicha xarajatlarni proporsional taqsimlash hisobi bilan mahsulot ko'rsatilmagan «asosiy qoldiq» 2010 schyot qoldig'i bo'yicha to'ldiriladi («ko'rsatkichlar» jadval qismini to'ldirishda faqat yuborilmagan hujjatlar uchun ishlaydi);

e) hujjat vaqtini tahlil qilish imkoniyati bilan oy so'ngida mazkur hujjat ishlab chiqiladi (bir oy davomida faqat bitta hujjat yaratish mumkin);

f) yarimtayyor mahsulotlar va aniq mahsulotga qo'shimcha xarajatlarni taqsimlash uchun mo'ljallangan hujjat (U ishlab chiqariladigan joyida mahsulot, bo'linmalarni albatta ko'rsatish zarur).

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Miqdori	Summa
Ishlab chiqarish schyoti	Mahsulot Xarajatlar moddasi Bo'linma	Xarajatlar schyoti	Заполняется, если есть остатки на счете затрат с учетом субконто.	Yo'q	Summa

8.5. Tannarx hisobi

«Tannarx hisobi» hujjati yordamida tayyor mahsulot tannarx hisobi, o'z yarimtayyor mahsulotni ishlab chiqarish amalga oshiriladi. Hujjat quyidagilarni o'z ichiga olgan:

a) hujjat raqami;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) bo'linma (Uni tanlash «Bo'linmalar» ma'lumotnomasi orqali amalga oshiriladi).;

f) hujjatga sharhlar.

Jadval qismi:

a) «Aktual» bayrog'i mazkur qator berilgan hujjatda ko'rib chiqilishini ma'lum qiladi. Agar «Ha» bo'lsa, tannarx hisobi mazkur qatorda ishlab chiqiladi, mazkur bayroq tayyor hamda yarimtayyor mahsulotlar hisob navbatini yaratish imkonini beradi.

b) Mahsulot (Uni tanlash «Tovar-material zaxiralari» ma'lumotnomasi orqali amalga oshiriladi).

d) Saqlash joyi (Uni tanlash «Saqlash joyi» ma'lumotnomasi orqali amalga oshiriladi).

e) Miqdori – foydalanuvchi yordamida kiritiladi.

f) Summa (tahlil qilinmaydi) – minus uchun yakunlanmagan mahsulotning ishlab chiqilish «asosiy mahsulot» 2010 hisob qoldig'i bo'yicha.

g) Tannarx (tahlil qilinmaydi) – o'z ishlab chiqarishdagi yarimtayyor hamda tayyor mahsulot tannarxining aniq narxi.

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

1) «Narxiy usul»:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Miqdor	Summa
Ishlab chiqishning rejadagi hisobi	Mahsulot Saqlash joyi Narx	Asosiy ishlab chiqarishning hisobi («2010»)	Mahsulot Bo'linma	Sharh	
				Miqdor	Summa
				Rejadagi ishlab chiqishni yopilishi	
Ombordagi tayyor mahsulotning hisobi («2810»)	Mahsulot Saqlash joyi Narx	Ishlab chiqishning rejadagi hisobi	Mahsulot Saqlash joyi Narx	Sharh	
				Miqdor	Summa
				Rejadagi ishlab chiqishning korrekturasi	

Realizatsiya qilingan tayyor mahsulotning tannarx hisob schyoti («9110»)	Yo'q	Ombordagi tayyor mahsulotning hisobi («2810»)	Mahsulot Saqlash joyi Narx	Sharh	
				Miqdor	Summa
				Dt «9110» korrektirovkasi realizatsiya qilingan tayyor mahsulotning tannarxi	

2) «FIFO usuli»:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Miqdor	Summa
Ishlab chiqishning rejadagi hisobi	Mahsulot Saqlash joyi «Partiya» («Hujjatning o'zi»)	Asosiy ishlab chiqarishning hisobi («2010»)	Mahsulot Bo'linma	Sharh	
				Miqdor	Summa
				Rejadagi ishlab chiqishni yopilishi	
Ombordagi tayyor mahsulotning hisob schyoti («2810»)	Mahsulot Saqlash joyi «Partiya» (hujjatni omborga jo'natish»)	Ishlab chiqishning rejadagi hisobi	Mahsulot Saqlash joyi «Partiya» (hujjatni omborga jo'natish»)	Sharh	
				Miqdor	Summa
				Rejadagi ishlab chiqishning korrekturasi	
realizatsiya qilingan tayyor mahsulotning tannarx hisob schyoti («9110»)	Yo'q	Ombordagi tayyor mahsulotning hisob schyoti («2810»)	Mahsulot Saqlash joyi «Partiya» («Hujjatning o'zi»)	Sharh	
				Miqdor	Summa
				Dt «9110» korrektirovkasi realizatsiya qilingan tayyor mahsulotning tannarxi	

3) «AVECO usuli»:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Miqdor	Summa
Ishlab chiqishning rejadagi hisob schyoti	Mahsulot saqlash joyi	Asosiy ishlab chiqarishning hisobi («2010»)	Mahsulot Bo'linma	Sharh	
				Miqdor	Summa
				Rejadagi ishlab chiqishni yopilishi	
Ombordagi tayyor mahsulotning hisob schyoti («2810»)	Mahsulot saqlash joyi	Ishlab chiqishning rejadagi hisob schyoti	Mahsulot saqlash joyi	Sharh	
				Miqdor	Summa
				Rejadagi ishlab chiqishning korrekturasi	
realizatsiya qilingan tayyor mahsulotning tannarx hisob schyoti («9110»)	Yo'q	Ombordagi tayyor mahsulotning hisob schyoti («2810»)	Mahsulot saqlash joyi	Sharh	
				Miqdor	Summa
				Dt «9110» korrektirovkasi realizatsiya qilingan tayyor mahsulotning tannarxi	

8.6. To'lov schyoti

Xaridorlarga to'lov uchun schyotni taqdim etish «To'lov schyoti» hujjati asosida shakllantiriladi. Hujjat quyidagilardan iborat:

- a) hujjat raqami;
- b) hujjat sanasi;
- d) tashkilot — ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;
- e) qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi (tanlov «Qo'shilgan qiymat solig'i» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
- c) kontragent - xaridorning nomi (tanlov «Kontragentlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
- d) asos - shartnoma (tanlov «Shartnomalar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
- e) kontragentning hisob varaqasi (tanlov «Kontragentlarning hisob varaqalari» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
- f) tashkilotning hisob raqami (tanlov «Shaxsiy hisob-kitob schyoti» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
- g) valuta - valutaning nomi (tanlov «Valutalar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
- h) hujjatga sharhlar.

Jadval qismi:

- a) nomi - TMZning nomi (tanlov «Tovar-moddiy zaxiralar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
 - b) o'lchov birligi - TMZ nomi ko'rsatilgandan keyin mazkur maydon avtomatik tarzda to'ldiriladi;
 - d) summa;
 - e) valutadagi summa;
 - f) QQS summasi;
 - g) valutadagi QQS summasi;
 - h) QQS bilan summasi;
 - i) QQS bilan valutadagi summasi.
- Hujjat o'tkazmalarni shakllantirmaydi.

8.7. Rejali narxni o'rnatish

«**Rejali narxni o'rnatish**» hujjati mahsulotga bo'lgan rejadagi tannarx narxini belgilash uchun mo'ljallangan bo'lib, bir oy davomida mahsulot qabul qilish imkonini beradi. Hujjat quyidagilarni o'z ichiga olgan:

a) hujjat raqami;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

c) «to'ldirish» tugmachasi – ishlab chiqarilgan mahsulot hujjatining jadval qismini to'ldiradi;

f) hujjatga sharhlar.

Jadval qismi:

a) mahsulot (Uni tanlash «Tovar-material zaxiralari» ma'lumotnomasi orqali amalga oshiriladi);

b) rejadagi t/n narxi – bir oy davomida omborga tushuvchilar rejadagi tannarx bo'yicha.

Qo'shimcha ravishda:

a) rejadagi mahsulotga bo'lgan tannarx narxlari keyingi «Rejadagi narxni o'rnatish» hujjatida o'zgartirshgacha o'tadi;

b) omborga qaysi rejadagi tannarx narxi bo'yicha o'tkazilishining so'nggi variantini aniqlaydi.

Hujjat o'tkazmalarni shakllantirmaydi.

8.8. Ustamani hisobga olgan holda taomning tannarxini hisoblash

Umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun mahsulotlarni ustamalarni hisobga olgan holda ishlab chiqarishga berish uchun taomning tannarxini hisoblash va realizatsiya qilishga chiqarish «**Taomning tannarxini ustamani hisobga olgan holda hisoblash**» hujjati yordamida amalga oshiriladi:

a) raqam;

b) sana;

d) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) bo'lim – tanlov «Bo'lim» qo'llanmasidan amalga oshiriladi;

f) ishlab chiqarish talabi – ishlab chiqarish talabi tanlovini taqdim etadi;

g) ustama – tayyor taomga ustama foizini ko'rsatadi, mazkur rekvizitni faqat «FIFO» i «AVECO» hisobdan chiqarish metodi orqali amalga oshirish mumkin;

Hujjatga izoh.

«Asosiy»ning jadval qismi:

agarda TMTs hisobdan chiqarish metodi «narxlar bo'yicha» bo'lsa:

a) «to'ldirish» tugmasi – tegishli bo'lim bo'yicha hujjatning asosiy qismida ko'rsatilgan «Ishlab chiqarish talabi» hujjati asosida «Asosiy»ning jadval qismini ma'lumotlar bilan to'ldiradi;

b) nomenklatura – «Ishlab chiqarish talabi» hujjati asosida «nomenklatura» avtomatik to'ldiriladi;

d) tannarx – «Ishlab chiqarish talabi» hujjati asosida «narx», «narxlar bo'yicha» hisobdan chiqarish metodida faollashadi;

e) ustama – har bir mahsulotga nisbatan ustama foizi ko'rsatiladi, «narxlar bo'yicha» hisobdan chiqarish metodida faollashadi;

f) tannarx summasi – taomning tannarxi summasi;

g) tannarx summasi ustama bilan – taomning tannarxi mahsulotga qo'yilgan ustamani hisobga olgan holdagi summasi (tannarx*son*ustama).

Agarda TMTs hisobdan chiqarish metodi «FIFO» va «AVECO» bo'lsa:

a) nomenklatura – «Ishlab chiqarish» hujjati asosida «nomenklatura» avtomatik ravishda to'ldiriladi;

b) son - «Ishlab chiqarish» hujjati asosida «son» avtomatik to'ldiriladi;

d) tannarx – taomning tannarxi summasi («summa» «Ishlab chiqarish talabi» hujjatidan);

e) tannarx summasi ustama bilan – taomning tannarxi summasi tayyor taomga qo'yilgan ustamani inobatga olgan holda (tannarx summasi*ustama).

«Tannarxni mahsulot birligiga qarab hisoblash» jadval qismi:

a) «to'ldirish» tugmasi – tegishli bo'lim bo'yicha hujjatning asosiy qismida ko'rsatilgan «Ishlab chiqarish talabi» hujjati asosida «Asosiy»ning jadval qismini ma'lumotlar bilan to'ldiradi;

b) nomenklatura – ishlab chiqarilgan mahsulot turi bo'yicha to'ldiriladi;

d) mahsulotni hisobga olish schyoti – tanlov 292*, 211* schyotlar guruhi ro'yxatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi;

e) saqlash joyi – tanlov «Saqlash joyi» qo'llanmasidan amalga oshiriladi (ya'ni, mahsulot saqlanadigan joy);

b) aktivni saqlash joyi (tanlov «Saqlash joyi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

c) xarajat moddasi (tanlov «Xarajat moddalari» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

d) uzoq muddatli aktivning balans qiymati;

e) aktivning eskirishi summasi;

f) aktivni qayta baholash summasi;

g) buxgalteriya ma'lumotlari asosida chiqib ketish summasi;

h) QQS summasi - agarda sotish bahosi ko'rsatilsa = (realizatsiya qilish summasi - (balans summasi - amortizatsiya summasi) / 1,2 * 0,2);

i) chiqib ketish miqdori - aktivni realizatsiya qilish summasi. Agar «chiqib ketish turi» maydonida «realizatsiya qilish», «beg'araz berish», «sho'ba korxonalarining ustav kapitaliga hissa qo'shish», «qaram korxonalarining ustav kapitaliga hissa qo'shish», «chet el kapitali bilan ishlovchi korxonalarining ustav kapitaliga hissa qo'shish», «boshqa turdagi uzoq muddatli investitsiyalarga hissa qo'shish», «bo'limga»

ko'rsatilgan bo'lsa, u holda mazkur maydonda aks ettiriladi. Realizatsiya qilish summasiga qo'shilgan qiymat solig'i summasi ham kiradi.

13.3. Ishonchnoma

Tovar mahsulotlarini olish ishonchnoma blankining ta'minotchilar joylaridan olinishini shakllantirish «**Ishonchnoma**» hujjati ko'magida amalga oshiriladi. Hujjat quyidagilardan iborat:

a) hujjat raqami;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) tashkilotning hisob raqami (tanlov «Shaxsiy hisob-kitob schyoti» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

f) haqiqiy hisoblansin - ishonchnomaning amal qilish sanasi (10 kun muhlatga avtomatik tarzda ishonchnoma berilgan sana bilan to'ldiriladi);

g) ishonchnoma beriladigan xodim (tanlov «Xodimlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

h) ta'minotchi tashkilot (tanlov «Kontragentlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

i) hujjat bo'yicha - tovarlarning oldi-sotdi shartnomasi (tanlov «Shartnomalar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

j) berildi - ishonchnoma beriladigan xodim belgilangan so'ng mazkur maydon avtomatik tarzda to'ldiriladi;

k) olish uchun - mazkur maydon ta'minotchi tashkilot belgilanganidan so'ng avtomatik tarzda to'ldiriladi;

l) № va sana - mazkur maydon tovarlarning oldi-sotdi shartnomasi belgilanganidan so'ng avtomatik tarzda to'ldiriladi.

Jadval qismi:

a) tovarning nomi;

b) tovarning o'lchov birligi (tanlov «O'lchov birligi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

d) qabul qilib olinadigan tovarning miqdori.

Hujjat o'tkazmalarni shakllantirmaydi.

13.4. TMQ inventarizatsiyasi

Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tovar-moddiy zaxiralarning har yilgi inventarizatsiyasi «**TMQ inventarizatsiyasi**» hujjati ko'magida amalga oshiriladi. Hujjat quyidagilardan iborat:

a) hujjat nomeri;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot — ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) tovar-moddiy boyliklarning turi - variantlarning qat'iy belgilangan ro'yxati: asosiy vositalar (0100), nomoddiy aktivlar (0400), materiallar (1000), tayyor mahsulot (2800), tovarlar (2900);

f) «partiyalab to'ldirish» belgisi faqatgina «FIFO» usuli qo'llanilgan hollarda aks ettiriladi;

g) saqlash joyi (tanlov «Saqlash joyi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

h) hujjatga sharhlar.

«Hokazolar» varag'i:

a) inventarizatsiya o'tkazishga (tanlov «Xodimlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

b) inventarizatsiyaning boshlanish sanasi;

d) inventarizatsiyaning tugash sanasi;

e) MJSh 1 - mazkur maydon moddiy javobgar shaxsning ish joyi ko'rsatilgandan so'ng avtomatik tarzda to'ldiriladi;

f) MJSh 2 (tanlov «Xodimlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

g) hujjat raqami - inventarizatsiya o'tkazishga asos;

h) hujjat sanasi - inventarizatsiya o'tkazishga asos.

«Asosiy» varag'i:

a) «to'ldirish» tugmasi - jadval qismini to'ldirish, tovar-moddiy boyliklar qoldiqlari bilan uning saqlanish joyini ko'rsatgan holda to'ldiradi;

b) «qoldiqlarni yangilash» tugmasi - jadvalda ko'rsatilgan tovar-moddiy boyliklar qoldiqlarini yangilaydi;

d) «haqiqatda mavjud ma'lumotlarni to'ldirish» tugmasi — jadvaldagi «miqdor» ustunidagi ma'lumotlar asosida «haqiqatda mavjud soni» ustunini to'ldiradi;

Jadval qismi:

a) tovar-moddiy boyliklar;

b) tovar-moddiy boyliklar hisobi schyoti; 166

d) tovar-moddiy boyliklarning hisobini baholash. Mazkur maydon agar «tovar-moddiy boyliklar turi» maydonida «materiallar», «tayyor mahsulot» yoki «tovarlar» ko'rsatilgan bo'lsa, aks ettiriladi. Hisob yuritishda o'rtacha qiymat usuli qo'llanilganda to'ldiriladi. «FIFO» va «AVECO» usulida mazkur maydon yopiladi;

e) tovar partiyalari — tovar partiyalarining soni va sanasi. Mazkur maydon «FIFO» usulida «partiyalab to'ldirish» belgisi yoqilganda aks ettiriladi;

f) buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha tovar-moddiy boyliklar soni;

g) haqiqatda mavjud soni;

h) buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha tovar-moddiy zaxiralar miqdori;

i) haqiqatda mavjud miqdori.

Hujjat o'tkazmalarni shakllantirmaydi.

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

- tovar-moddiy boyliklarning solishtirma qaydnomasi;
- tovar-moddiy boyliklarni inventarizatsiya qilish ro'yxati.

13.5. AV va NMA amortizatsiyalar hisobi

Amortizatsiyani hisoblash har oyda «**AV va NMA amortizatsiyalar hisobi**» hujjati ko'magida amalga oshadi. Amortizatsiya hisoblash hisob oyining oxirida amalga oshiriladi. Amortizatsiya uzoq muddatli aktivni oxirgi saqlash joyi bo'yicha hisoblanadi. Oy davomida foydalanishga topshirilgan uzoq muddatli aktivlar amortizatsiyani hisoblashda qatnashmaydi. Amortizatsiya to'g'ri chiziqli usul bilan uzoq muddatli aktivni kirim qilishda belgilangan yillik miqdor asosida hisoblanadi. Hujjat «0100», «0200», «0400», «0500» schyotlaridagi ma'lumotlar asosida ishlaydi. Hujjat quyidagilardan iborat:

a) hujjat raqami;

b) hujjat sanasi - oyning birinchi kuni;

c) tashkilot — ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

d) «bu nomoddiy aktivlar» - amortizatsiya asosiy vositaga yoki nomoddiy aktivga taalluqliligini anglatadi. Bir hujjat asosiy vosita yoki nomoddiy aktivlarning bir turini o'zida joylashtirishi mumkin;

e) «to'ldirish» tugmasi - hujjatning jadval qismiga aktivlarni kiritadi;

f) hujjatga sharhlar;

Jadval qismi:

a) uzoq muddatli aktiv;

b) aktivning saqlanish joyi;

c) aktivning hisob raqami;

d) bir yildagi amortizatsiya normasi;

e) aktivning balans qiymati;

f) joriy oydagi amortizatsiya miqdori.

Hujjat quyidagi o'tkazish varaqlarini shakllantiradi:

1) asosiy vositalarning eskirishi:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta miqdori	Izoh
Xarajatlarschyoti	Subkonto	Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash	Asosiy vositalar, saqlash joyi		Amortizatsiya miqdori		

2) nomoddiy aktivlarning eskirishi:

Dt	Subkonto	Kr	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta miqdori	Izoh
Xarajatlarschyoti	Subkonto	Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash schyoti	AV, saqlash joyi		Amortizatsiya miqdori		

13.6. AV va NMA ni ko'chirish

Asosiy vositalar va NMA ni bir joydan boshqa joyga ko'chirish «AV va NMA ni ko'chirish» hujjati ko'magida amalga oshiriladi. Mazkur hujjatda pul summasi va hisob raqamlar tahrir qilinmaydi. Hujjat quyidagilardan iborat:

a) hujjat raqami;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) «bu NMA» belgisi - asosiy vosita yoki nomoddiy aktiv harakatini ifodalaydi. Bir hujjat faqatgina bir turni: asosiy vositalarni yoki nomoddiy aktivlarni bir joydan boshqa joyga ko'chira oladi;

f) ombordan - uzoq muddatli aktivlarni saqlash joyi bo'lib, u yerdan ular boshqa joyga ko'chiriladi;

g) omborga - uzoq muddatli aktivlar u erga ko'chiriladi;

h) «to'ldirish» tugmasi - hujjatning jadval qismini aktivlar bilan to'ldiradi, ular saqlash joyining belgilagan qismida saqlanadi;

i) hujjatga sharhlar;

Jadval qismi:

a) uzoq muddatli aktiv;

b) uzoq muddatli aktivning balans qiymati;

d) uzoq muddatli aktivning amortizatsiya summasi;

e) uzoq muddatli aktivning hisobini yuritish schyoti;

f) asosiy vositalarning amortizatsiyasi hisobini yuritish schyoti.

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

1) asosiy vositalarni ko'chirish:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta summasi	Izoh
Asosiy vositalar hisobini yuritish schyoti	Asosiy vositalar, saqlash joyi	Asosiy vositalar hisobini yuritish schyoti	Asosiy vositalar, saqlash joyi		Summa		Balans summasi
Asosiy vositalar eskirishi hisobini yuritish schyoti	Asosiy vositalar, saqlash joyi	Asosiy vositalar eskirishi hisobini yuritish schyoti	Asosiy vositalar, saqlash joyi		Summa		Amortizatsiya summasi

2) nomoddiy aktivlarni ko'chirish:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta summasi	
Nomoddiy aktivlar hisobini yuritish schyoti	Nomoddiy aktivlar, saqlash joyi	Nomoddiy aktivlar hisobini yuritish schyoti	Nomoddiy aktivlar, saqlash joyi		Summa		Balans summasi

Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi hisobini yuritish schyoti	Nomoddiy aktivlar, saqlash joyi	Nomoddiy aktivlar Amortizatsiyasi hisobini yuritish schyoti	Nomoddiy aktivlar, saqlash joyi		Summa	Amortizatsiya summasi
---	---------------------------------	---	---------------------------------	--	-------	-----------------------

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

- yukxat (ichki ko'chirishlar uchun);
- AV-1 (a)-sonli dalolatnoma;
- AV-1-sonli dalolatnoma;
- hujjatning harakatlanishi.

13.7. AV va NMA ni qayta baholash

Aktivlarni har yilgi qayta baholash «AV va NMA ni qayta baholash» hujjati ko'magida amalga oshiriladi. Aktivlarni qayta baholash uchun qayta baholash indeksleri jadvali talab qilinadi. Hujjat «0100», «0200», «0400», «0500», «0700», «0810», «0820» schyotlari bilan ishlaydi. Hujjat quyidagilardan iborat::

- a) hujjat soni;
 - b) hujjat sanasi;
 - d) tashkilot — ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;
 - e) «bu nomoddiy aktivlar» - qayta baholash asosiy vositaga yoki nomoddiy aktivga taalluqliligini anglatadi. Bir hujjat asosiy vosita yoki nomoddiy aktivlarning bir turini o'zida joylashtirishi mumkin;
 - f) xarajat moddalari - uzoq muddatli aktivni qayta baholash vaqtida foydalaniladigan modda;
 - j) hujjatga sharhlar;
- «Davrlar» varag'i uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashni amalga oshiruvchi davrlarni kiritishga xizmat qiladi;

Jadval qismi:

- a) davrning boshlanish sanasi;
 - b) davrning tugash sanasi.
- «Asosiy» varag'i:

a) «to'ldirish» tugmasi - hujjatning jadval qismidagi aktivni kirim qilish sanasiga asoslanib, uzoq muddatli aktivlarning guruhlari bo'yicha to'ldiradi;

b) «sharhni to'ldirish» tugmasi - «Sharh» varag'idagi jadval qismlarini uzoq muddatli aktivlar bilan to'ldiradi.

Jadval qismi:

a) uzoq muddatli aktiv - aktivlar guruhi;

b) davrning boshlanish sanasi;

c) davrning oxiriga yetish sanasi;

d) muayyan davrda bir guruh aktivlarni qayta baholash koeffitsiyenti (qayd qilinmasdan «1,00»).

«Sharh» varag'i:

a) «sharhni to'ldirish» tugmasi «Sharh» varag'idagi jadval qismlarini

uzoq muddatli aktivlar bilan to'ldiradi;

b) «qo'shimcha tugmalarni ko'rsatish» tugmasi - quyidagi ustunlarni qo'shadi:

- davrlar ustuni;

- schyotlar ustuni;

- oldingi summalar ustuni;

Jadval qismi:

a) uzoq muddatli aktiv;

b) muayyan davrda bir guruh aktivlarni qayta baholash koeffitsiyenti;

d) aktivni sahlash joyi;

e) davrning boshlanish sanasi;

f) davrning tugash sanasi;

g) balans miqdori - qayta baholashdan oldingi balans miqdori;

h) eskirish miqdori - qayta baholashdan oldingi eskirish miqdori;

i) yangi balans miqdori - qayta baholashdan keyingi balans miqdori;

j) eskirishning yangi miqdori - qayta baholashdan keyingi eskirish miqdori;

k) balans schyoti - uzoq muddatli aktivning hisobini yuritish schyoti;

1) eskirish schyoti - uzoq muddatli aktivning eskirish schyoti.

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

1) asosiy vositalarni qayta baholash:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Valuta	Summa	Valuta summasi	Izoh
Asosiy vositalar hisobi schyoti	Asosiy vositalar, saqlash joyi	8510	AV		Qayta baholash summasi		
8510	AV	Asosiy vositalarning eskirishi hisobi schyoti	Asosiy vositalar, saqlash joyi		Qayta baholash summasi		

2) nomoddiy aktivlarni qayta baholash:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Valuta	summa	Valuta summasi	Izoh
Nomoddiy aktivlar hisobi schyoti	Nomoddiy aktivlar, saqlash joyi	8511	Nomoddiy aktivlar		Qayta baholash summasi		
8511	Nomoddiy aktivlar	Nomoddiy aktivlar eskirishi hisobi	Nomoddiy aktivlar, saqlash joyi		Qayta baholash summasi		

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni qayta baholash;
- hujjat harakati.

13.8. AV va NMAlarning kelib tushishi

Tashkilotga kirim qilinadigan asosiy vositalar obyektlari va nomoddiy aktivlarning qayd qilinishi «**AV va NMAlarning kelib tushishi**» hujjati orqali amalga oshiriladi. Hujjat quyidagilardan iborat:

- hujjat raqami;
- hujjat sanasi;
- tashkilot — ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;
- «bu NMA» belgisi - kirim qilinayotgan aktiv asosiy

vosita yoki nomoddiy aktivligini belgilaydi. Bir hujjat faqat bitta turni: asosiy vosita va NMA ni kirim qilishi mumkin;

l) «foydalanishga kiritish» belgisi - kirim qilingan asosiy vositalar yoki nomoddiy aktivlarni mazkur sana bilan foydalanishga kiritish zarurati bor yoki yo'qligini ko'rsatadi. Shu bilan quyidagi o'tkazma amalga oshiriladi: Dt 0100 (0400) - Kt 0820 (0830);

g) tushum manbayi - variantlarning qat'iy belgilangan ro'yxati:

- «o'z mablag'lari hisobidan» ->6000» hisob raqami guruhidagi «6010» schyotidan qayd qilinmagan holda amalga oshiriladi;

- «bo'linmalardan» - «6100» hisob raqami guruhidagi «6110» schyotidan qayd qilinmagan holda amalga oshiriladi;

- «ustav jamg'armasiga pul o'tkazish» - «4600» schyot guruhidagi «4610» schyotidan qayd qilinmagan holda amalga oshiriladi;

- «beg'araz» - «8500» schyot guruhidagi «8530» schyotidan qayd qilinmagan holda amalga oshiriladi;

- «maqsadli foydalanish uchun» - «8800» va «9400» schyot guruhidagi «8890» schyotidan qayd qilinmagan holda amalga oshiriladi;

- «inventarizatsiya natijasida» - «9300» schyot guruhidagi «9390» schyotidan qayd qilinmagan holda amalga oshiriladi;

h) ta'minotchi hisob raqami - «o'z mablag'lari hisobidan» tushum manbayi bo'lgan taqdirda, tanlov «Schyotlar rejasi» ma'lumotnomasidan «6010» schyotidan qayd qilinmagan holda amalga oshiriladi. Boshqa variantlar bo'yicha tanlab olingan tushum manbayi bo'yicha cheklolar belgilangan;

i) valuta - agar «ta'minotchi hisob raqami» maydonida valuta schyoti ko'rsatilgan bo'lsa, ushbu maydon aks ettiriladi (tanlov «Valutalar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

j) kontragent - uzoq muddatli aktivni yetkazib beradigan ta'minotchi (tanlov «Kontragentlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

k) shartnoma, uzoq muddatli aktiv, shartnoma orqali kirim qilinadi;

l) saqlash joyi, berilgan aktivning saqlash joyi (tanlov «Saqlash joyi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

m) ishonchnoma - ta'minotchidan asosiy vositalarni olish uchun zarur bo'lgan hujjat (tanlov «Ishonchnoma» hujjatining ro'yxati shaklidan amalga oshiriladi);

n) ta'minotchining schyot-fakturasi (tanlov «Ta'minotchining schyot-fakturasi» hujjatining ro'yxati shaklidan amalga oshiriladi);

o) hujjatga sharhlar.

«Sotib olish uchun amalga oshirilgan qo'shimcha xarajatlar» varag'i:

a) amalga oshirilgan qo'shimcha xarajatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi (tanlov «QQS stavkalari» ma'lumotnomasi asosida shakllanadigan ro'yxatdan amalga oshiriladi);

b) qo'shimcha xarajat (tanlov «Qo'shimcha xarajatlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

d) xarajatlarni hisobga oluvchi schyot (tanlov «Schyotlar rejasi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

e) subkonto 1, 2, 3 - hisobning tahlili;

f) qo'shimcha xarajat miqdori;

g) qo'shimcha xarajatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

h) qo'shimcha xarajatlarning qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olgan holdagi miqdori;

i) qo'shimcha xarajatlarning valuta summasi;

j) qo'shimcha xarajatlar ko'rsatilgan schyot-faktura yukxatining raqami;

k) qo'shimcha xarajatlar ko'rsatilgan schyot-faktura yukxatining sanasi;

«Asosiy» varag'i:

a) QQS stavkasi (tanlov «QQS stavkalari» ma'lumotnomasi asosida shakllanadigan ro'yxatdan amalga oshiriladi);

b) uzoq muddatli aktiv (tanlov aktiv turiga bog'liq holda, «Asosiy vositalar» yoki «Nomoddiy aktivlar» ma'lumotnomasi orqali amalga oshiriladi);

d) aktivning kelib tushish manbayi. Ushbu maydon uzoq muddatli aktiv ko'rsatilgan holda avtomatik tarzda to'ldiriladi;

- c) uzoq muddatli aktiv summasi (QQSsiz);
- d) qo'shimcha xarajatlar nazarda tutgan holda uzoq muddatli aktiv summasi (QQSsiz);
- e) QQS summasi (aktiv summasiga kiritilgan QQS summasi);
- f) jami QQS summasi (qo'shimcha xarajatlarni nazarda tutgan holda);
- g) uzoq muddatli aktiv summasi (QQSni hisobga olgan holda);
- h) uzoq muddatli aktiv va qo'shimcha xarajatlar summasi (QQSni hisobga olgan holda);
- i) uzoq muddatli aktivning valutadagi miqdori (summa ko'rsatilgan valutada);
- j) qo'shimcha xarajatlar nazarda tutgan holda uzoq muddatli aktiv summasi (summa ko'rsatilgan valutada);
- k) uzoq muddatli aktivning yakuniy summasi, qo'shimcha xarajatlar bilan birga.

13.9. Ta'minlovchining hisob varag'i

Ta'minotchi tomonidan taqdim etilgan «**Ta'minlovchining hisob varag'i**» hujjati schyot-faktura ma'lumotlarini qayd etishga, uzoq muddatli aktivlar, tovar-moddiy zaxiralar, xizmatlarni sotib olishga xizmat qiladi. Hujjat quyidagilardan iborat:

- a) schyot-fakturani qayd qilish raqami;
- b) schyot-fakturani qayd qilish sanasi;
- d) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;
- e) ta'minotchi (tanlov «Kontragentlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
- f) hujjatga sharhlar.

Hujjat o'tkazmalarni shakllantirmaydi.

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar mavjud emas.

Tayanch so'zlar:

Asosiy vositalarni foydalanishga kiritish.

AV va NMAning chiqarilishi.

Ishonchnoma.

TMQ inventarizatsiyasi.
AV va NMA amortizatsiyalar hisobi.
AV va NMA ni ko'chirish.
AV va NMA ni qayta baholash.
AV va NMA larning kelib tushishi.
Ta'minlovchining hisob varog'i.

XIV mavzu. TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNING HISOBİ

14.1. Yukxati hisobvaraƒ-faktura

TMZning sotilishi «Yukxati hisobvaraƒ-faktura» hujjati ko'magida amalga oshiriladi. Hujjat quyidagilarni aks ettiradi:

a) hujjat raqami;

b) hujjat sanasi;

d) xaridorning hisob raqami - agar «bu chakana» belgisi o'chirilgan bo'lsa, u holda bu maydon ishchi holatda bo'ladi (tanlov «Schyotlar rejası» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi, qayd qilinmasdan «4010»);

e) xarajatlar subkontosi 1, 2, 3 - xaridor hisob raqamining tahlili. Agar «bu chakana» belgisi o'chirilgan bo'lsa, u holda bu maydon ishchi holatda bo'ladi;

f) Kontragentning hisob raqami (tanlov «Kontragentning hisob raqamlari» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

g) TMZni xarid qilish uchun ishonchnoma raqami ;

h) TMZni xarid qilish uchun ishonchnoma sanasi ;

i) TMZ xaridorning ishonchnomadagi I.F.Sh;

j) TMZ savdosini amalga oshirishi uchun saqlash joyi (tanlov «Saqlash joyi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi)

k) shaxsiy hisob-kitob schyoti (tanlov «Shaxsiy hisob-kitob schyoti» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

l) daromadlar schyoti (tanlov «9000», «9320» schyotlar guruhidagi qo'shimcha schyotlarning ro'yxati asosida amalga oshiriladi, qayd qilinmasdan «9020»);

m) xarajatlar hisob raqami (tanlov «9100», «9400» guruhidagi qo'shimcha schyotlarning ro'yxati asosida amalga oshiriladi, qayd qilinmasdan «9120»);

n) tashkilot - ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

o) «bu chakana» belgisi - TMZning chakana baholarda sotilishini aniqlaydi. Agar belgi yoqilgan bo'lsa, «xaridorning

schyoti», «subkonto 1, 2, 3» maydonlari ishchi holatda bo'lmaydi va «qo'shilgan qiymat solig'i» maydoni yopiladi;

p) valuta – «Eksport» bayroqchasi yoqilganda va «Valuta» ma'lumotlar registrida ko'rsatilgan valuta kursi bo'yicha sotib oluvchining valuta schyoti tanlanganda paydo bo'ladi;

q) «SWIFT tashkilotlarni ko'rsat» – SWIFT tashkilotlarni «Yuk hisob-fakturasi»ni bosma shaklda ko'rsatish zarurligini ko'rsatadi;

r) «eksport» bayroqchasi – eksportga chiqariladigan mahsulot realizatsiyasini belgilaydi, mahsulotni bir vaqtning o'zida ham eksportga, ham chakana savdoga chiqarishga yo'l qo'yilmaydi;

s) «nolli miqdorni tekshirish» belgisi – hujjatda nolli miqdorni mavjudligini tekshiradi. Foydalanuvchi tomonidan nolli miqdor ko'rsatilganda mazkur belgi o'chirilgan bo'lsa hujjatda TMZni ko'rsatilgan holda o'tadi, aks holda o'chik bo'lsa hujjat o'tmaydi;

t) «umumiy ovqatlanish» bayroqchasi – tayyor mahsulotni 292*, 211* hisobga olish schyoti bo'yicha realizatsiya qilish uchun mo'ljallangan. «Umumiy ovqatlanish» bayroqchasi yoqilgan holatda «Aksiz solig'i stavkasi», «Aksiz solig'i summasi» kolonkalari, «Eksport» bayroqchasi, «Valuta» rekviziti yashirilgan;

u) mahsulot eksporti 0% bo'lganda QQS stavkasi (tanlov «QQS stavkalari» qo'llanmasida tarkib topadigan ro'yxatdan kelib chiqib amalga oshiriladi);

v) «to'ldirish» tugmasi - belgilangan joyda saqlanadigan TMZ hujjatining jadval qismini to'ldiradi;

w) qoldiqlarni yangilash» tugmasi – miqdori va summasi bo'yicha qoldiqlarni qayta sanaydi;

x) hujjatga sharhlar.

Jadval qismi:

«Baholar usuli»

a) TMZ (tanlov «Tovar-moddiy zaxiralar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

b) TMZ schyoti - TMZning hisobini yuritish schyoti;

d) sotib olish bahosi - TMZ sotib olingan baho;

e) sotish bahosi - TMZ qo'shilgan qiymat solig'isiz soti-

ladigan baho. «Bu chakana» belgisi o'chirilganda, qo'lda to'ldiriladi yoki boshqa holatlarda: «Sotish baholarini belgilash» hujjatining «ulgurji bahosi» asosida to'ldiriladi, bunda «Sotish baholarini belgilash» hujjatida ushbu TMZ uchun ulgurji baho ko'zda tutilgan bo'lishi hamda saqlash joyi «Schyot-faktura yukxati» hujjatining «saqlash joyi» maydoniga mos kelishi kerak;

f) realizatsiya qilish narxi (valutada) — «Eksport» bayroqchasi yoqilganda paydo bo'ladi, Realizatsiya qilish narxini hujjat sanasidagi valuta kursi bo'yicha so'mda hisoblash imkoniyatini beradi;

g) ko'rsatilgan saqlash joyida va tanlab olingan bahodagi qoldiq soni;

h) sotiladigan TMZning soni;

i) qoldiq summa;

j) xarid qilish summasi;

k) TMZni sotish summasi;

l) valutada realizatsiya qilish summasi — «Eksport» bayroqchasi yonganda paydo bo'ladi va hisoblanadi;

m) aksiz solig'i stavkasi — avtomatik tarzda to'ldiriladi, «Eksport», «Umumiy ovqatlanish» va «Chakana savdo» bayroqchalari yonganda yashirin holda bo'ladi

n) aksiz solig'i summasi

o) qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

p) sotish summasi qo'shilgan qiymat solig'i bilan.

«FIFO/AVECO usuli»

a) TMZ (tanlov «Tovar-moddiy zaxiralar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

b) TMZ schyoti - TMZ hisobini yuritish schyoti;

d) TMZ qo'shilgan qiymat solig'isiz sotiladigan baho. «Bu chakana» belgisi o'chirilganda, qo'lda to'ldiriladi yoki boshqa holatlarda: «Sotish baholarini belgilash» hujjatining «ulgurji bahosi» asosida to'ldiriladi, bunda «Sotish baholarini belgilash» hujjatida ushbu TMZ uchun ulgurji baho ko'zda tutilgan bo'lishi hamda saqlash joyi «Schyot-faktura yukxati» hujjatining «saqlash joyi» maydoniga mos kelishi kerak. «Bu chakana» belgisi yoqilganda ushbu maydon yashirin holatda bo'ladi;

e) realizatsiya qilish narxi (valutada) – «Eksport» bayroqchasi yoqilganda paydo bo'ladi. Realizatsiya qilish narxini hujjat sanasidagi valuta kursi bo'yicha so'mda hisoblash imkoniyatini beradi;

f) ko'rsatilgan saqlash joyida va tanlab olingan bahodagi qoldiq soni;

g) sotiladigan TMZning soni;

h) qo'shilgan qiymat solig'isiz sotish summasi;

i) valutada realizatsiya qilish summasi – «Eksport» bayroqchasi yonganda paydo bo'ladi va hisoblanadi;

j) aksiz solig'i stavkasi – avtomatik tarzda to'ldiriladi, «Eksport», «Umumiy ovqatlanish» va «Chakana savdo» bayroqchalari yonganda yashirin holda bo'ladi;

k) aksiz solig'i summasi;

l) qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

m) qo'shilgan qiymat solig'i bilan sotish summasi.

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

a) «baholash metodi»:

1) «bu chakana savdo» bayroqchasi o'chirilgan;

2) «Umumiy ovqatlanish» bayroqchasi o'chirilgan;

3) «Eksport» bayroqchasi yoqilgan (eksportda QQS stavkasi – 0%);

14.2. TMZ ni o'tkazish

Tovar-moddiy zaxiralarning ko'chirilishi «**TMZ ni o'tkazish**» hujjati ko'magida amalga oshiriladi. Hujjat quyidagilardan iborat.

a) hujjat raqami;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) ko'chirish turi - variantlarning qat'iy belgilangan ro'yxati («omborlar orasida», «ulgurji savdo - omboriga», «chakana sotuvga», «do'konlar orasida»);

f) ombordan - tovar-moddiy zaxiralarni saqlash joyi;

g) omborga - tovar-moddiy zaxiralar saqlashga topshiriladigan joy;

h) to'ldirish» tugmasi - TMZ hujjatining jadval qismini to'ldiradi, u belgilangan saqlash joyida saqlanadi;

i) hujjatga sharhlar.

Jadval qismi:

«Baholar usuli»:

Ko'chirish turi: «omborlar orasida». Ko'chirishning ushbu turini tanlab olganda avtomatik tarzda «bahosi ustama bilan», «qiymati ustama bilan» ustunlari avtomatik tarzda ochiladi:

a) TMZ (tanlov oshiriladi);

b) schyot - boshqa joyga ko'chirishdan oldingi TMZ hisob varaqasi (tanlov 292 * schyotlarining ro'yxati asosida amalga oshiriladi);

d) oluvchining hisob raqami - boshqa joyga ko'chirilgandan keyingi TMZ schyoti (tanlov 1000, 2800, 291*, 293*-297*, 299* schyotlarining ro'yxati asosida amalga oshiriladi);

e) sotib olish bahosi - TMZ sotib olingan baho;

f) qoldiq soni - TMZning saqlash joyi va bahosi bo'yicha qoldiqlari;

g) ko'chirilgan TMZ hajmi;

h) qoldiqlar summasi;

i) xarid qilish summasi.

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

1) «Tovar-moddiy zaxiralar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi.

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Summa	Izoh
TMZ ko'chirilganidan keyin hisobga olish	TMZ, saqlash joyi, bahosi	TMZni ko'chirishdan oldingi hisobga olish schyoti	TMZ, saqlash joyi, bahosi	Sotib olish miqdori, soni	

Ko'chirish turi: «ulgurji savdo omboriga». Mazkur ko'chirish turi tanlab olganda «qiymati ustama bilan» ustuni avtomatik tarzda ochiladi:

a) TMZ (tanlov «Tovar-moddiy zaxiralar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

b) schyot - boshqa joyga ko'chirishdan oldingi TMZ schyoti (tanlov 1000, 2800, 291*, 293*-297*, 299* hisobining ro'yxatidan amalga oshiriladi);

d) oluvchining hisob raqami - boshqa joyga ko'chirilgandan keyingi TMZ schyoti (tanlov 1000, 2800, 291*, 293*-297*, 299* hisoblarining ro'yxatidan amalga oshiriladi);

e) sotib olish bahosi - TMZ sotib olingan baho;

f) qoldiq soni - TMZning saqlash joyi va bahosi bo'yicha qoldiqlari

g) ko'chirilgan TMZ hajmi

h) qoldiqlar summasi;

i) xarid qilish summasi.

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

Dt	Subkonto TMZ, saqlash joyi, bahosi	K1 TMZni ko'chirishdan oldingi hisobga olish schyoti	Subkonto TMZ, saqlash joyi, bahosi	Summa	Izoh
TMZ ko'chirilgani dan keyin hisobga olish schyoti				Sotib olish miqdori, soni	
Ustama bahoni hisobga oluvchi schyot	TMZ, saqlash joyi, bahosi	TMZni ko'chirishdan oldingi hisobga olish schyoti	TMZ, saqlash joyi, bahosi	(Sotib olish bahosi - ustama baho)* soni	

Ko'chirish turi: «chakana bahoda»:

a) TMZ (tanlov «Tovar-moddiy zaxiralar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

b) schyot - TMZni ko'chirishdan oldingi schyot (tanlov 1000, 2800, 291*, 293*-297*, 299* schyotlarining ro'yxatidan amalga oshiriladi);

d) oluvchining schyoti - TMZ ko'chirilgandan keyingi schyot (tanlov 292*schyotidan ro'yxat asosida amalga oshadi);

e) sotib olish bahosi - TMZ sotib olingan baho;

f) ustama baho - qo'lda kiritiladi yoki «chakana baho» hujjatidan «Sotish bahosini belgilash» hujjati orqali avtomatik ravishda amalga oshiriladi, «Sotish bahosini belgilash» hujjatida tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha chakana baho ko'rsatilgan bo'lsa hamda saqlash joyi «TMZni ko'chirish hujjati»dagi «omborda» maydoniga mos kelgan hollarda;

g) qoldiq soni - TMZning saqlash joyi va bahosi bo'yicha qoldiqlari;

- h) ko'chiriladigan TMZ miqdori;
- i) qoldiqlar summasi;
- j) xarid qilish summasi;
- k) ustamali baho.

14.3. Tovar-moddiy zaxiralarni qayta baholash «TMZni»

Tovar-moddiy zaxiralarni qayta baholash «TMZni» qayta baholash» hujjati ko'magida amalga oshiriladi. Hujjat quyidagilardan iborat:

- a) hujjat raqami;
- b) hujjat sanasi;
- d) tashkilot — ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;
- e) saqlash joyi (tanlov «Saqlash joyi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
- f) xarajatlar schyoti - mazkur maydon tannarxning kamayishi holatida to'ldiriladi (tanlov «Schyotlar rejasi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi, qayd qilinmasdan «9430»);
- g) xarajatlar moddasi;
- h) «chakana» belgisi - «yangi bahoda» realizatsiya qilish bahosi ko'rsatilganini aniqlash uchun zarur, boshqa hollarda - bu tannarxining qiymatini anglatadi;
- i) «to'ldirish» tugmasi - ko'rsatilgan saqlash joyida saqlanuvchi TMZ hujjatining jadval qismini to'ldiradi;
- j) hujjatga sharhlar;

Jadval qismi («Baholar usuli»):

- a) nomi (tanlov «Tovar-moddiy zaxiralar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
- b) schyot - TMZning hisobini yuritish schyoti (tanlov «Schyotlar rejasi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
- d) miqdori-qoldiq miqdori;
- e) eski bahosi - «chakana» belgisi o'chirilganda baholar ma'lumotnomasining «Sotib olish bahosi» maydonida bo'ladi, ushbu baho bo'yicha qoldiq mavjud hollarda, «chakana» belgisi yoqilganda - «sotib olish bahosi» maydonida bo'ladi - «Baholar» ma'lumotnomasining «Sotish bahosi» maydonida, ushbu baho bo'yicha qoldiq mavjud bo'lgan hollarda;

- f) TMZning yangi bahosi;
- g) eski summa;
- h) yangi summa;
- i) farqi («yangi summa» - «eski summa»).

14.4. TMZ kirim yuk xati

TMZni xarid qilish «**TMZ kirim yuk xati**» ko'magida amalga oshiriladi. Hujjat quyidagilardan iborat:

a) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

b) hujjat raqami;

d) hujjat sanasi;

e) ta'minotchining hisob raqami (tanlov «Schyotlar rejasi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi, qayd qilinmasdan «6010»);

f) subkonto 1, 2, 3 - hisob raqam tahlili;

g) saqlash joyi, mazkur aktivning saqlash joyidir (tanlov «Saqlash joyi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

h) «bu chakana» belgisi - tovar-moddiy zaxiralarning chakana sotuvda bo'lishini aniqlaydi;

i) BYuD (bojxona yuk deklaratsiyasi);

j) valuta - agar «ta'minotchi schyoti» maydonida valuta hisobi ko'rsatilgan bo'lsa, mazkur maydon aks ettiriladi (tanlov «Valutalar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

k) ishonchnoma - ta'minotchidan TMZni olish hujjati (tanlov «Ishonchnoma» hujjati ro'yxati shaklidan amalga oshiriladi);

l) ta'minotchining schyot-fakturasi (tanlov «Ta'minotchining schyot-fakturasi» ro'yxati shaklidan amalga oshiriladi);

m) «xarajatlar uchun» belgisi - kirim qilinayotgan TMZni shu davrning o'zida korxonaning xarajatlari sifatida tan olinishi yoki olinmasligini anglatadi. Belgi yoqilgan bo'lsa, quyidagi maydonlar aks ettiriladi:

- xarajat schyotlari (tanlov «Schyotlar rejasi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

- xarajat schyotlari subkontosi 1, 2, 3 - xarajatlar hisobi tahlili;

n) hujjatga sharhlar;

«Sotib olish bo'yicha qo'shimcha xarajatlar» varag'i:

a) amalga oshirilgan qo'shimcha xarajatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining miqdori (tanlov «Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi» ma'lumotnomasi asosida shakllanadi);

b) qo'shimcha xarajat (tanlov «Qo'shimcha xarajatlar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

d) xarajat schyotlari (tanlov «Schyotlar rejasi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

e) subkonto 1, 2, 3 - hisob raqamining tahlili;

f) qo'shimcha xarajatlar miqdori;

g) QQS summasi (qo'shimcha xarajatlar bo'yicha);

h) qo'shimcha xarajatlar summasi (QQS bilan);

i) qo'shimcha xarajatning valutadagi summasi.

«Asociy» varag'i:

a) «qo'shimcha xarajatlarni taqsimlash» tugmasi - qo'shimcha xarajatlarni «Asosiy» varaqning jadval qismida keltirilgan TMZ tannarxiga mutanosib tarzda taqsimlaydi;

b) QQS stavkasi (tanlov «QQS stavkasi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

d) tovar-moddiy zaxiralar (tanlov «Tovar-moddiy zaxiralar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

e) tovar-moddiy zaxiralar hisobi schyoti (tanlov «Schyotlar rejasi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

f) tannarxi valutadagi bahosi - tannarxini valutadagi bahosiini bildiradi

g) tannarxi bahosi - tannarxi bahosini bildiradi;

h) xarajatlarni hisobga olgan holdagi bahosi - qo'shimcha xarajatlar bilan birga;

i) qo'yilgan ustama baho bilan - qo'lda kiritiladi yoki «chakana baholar» maydonidan «Realizatsiya qilish baholarini aniqlash» hujjati orqali to'ldiriladi, agar «Realizatsiya qilish baholarini aniqlash» hujjatida mazkur TMZ bo'yicha chakana baho ko'rsatilgan bo'lsa hamda saqlash joyi «Tovar-moddiy zaxiralarning kirishi» hujjatining «saqlash joyi» maydoniga mos kelsa;

j) kirim qilinayotgan TMZ soni;

k) tannarxi - tannarxining qiymati;

l) aksiz solig'i summasi – faqat aksizga oid xom ashyo uchun aksiz solig'i summasi ko'rsatiladi, «Chakana savdo» bayroqchasi o'chirilgan bo'lsa, o'zgartirish mumkin;

m) QQS miqdori - tannarxga qo'shilmaydi;

n) QQS bilan;

o) tannarxining valutadagi qiymati - tannarxining valutadagi qiymatini ko'rsatadi;

p) qo'shimcha xarajatlar miqdori - qo'shimcha xarajatlarning taqsimlangan qiymati;

q) yakuniy summa - qo'shimcha xarajatlar qiymati kiritilgan summa;

r) jami QQS - jami QQS qo'shimcha xarajatlarni hisobga olgan holda;

s) kirim qilinayotgan TMZ miqdori (QQS bilan) - qo'shimcha xarajatlarni inobatga olgan holda;

t) ustama bahoni inobatga olgan holdagi summasi;

u) valutadagi yakuniy qiymati.

14.5. Talabnoma

TMZning hisobdan chiqarilishi **«Talabnoma»** hujjati yordamida amalga oshiriladi. Hujjat quyidagilarni aks ettiradi:

a) hujjat raqami;

b) hujjat sanasi;

d) tashkilot — ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;

e) TMZni hisobdan chiqarish joyi (tanlov «Saqlash joyi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

f) xarajatlar schyoti (tanlov «Schyotlar rejası» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

g) xarajatlar subkontosi 1, 2, 3 - xarajatlar schyotining tahlili;

h) «to'ldirish» tugmasi - belgilangan joyda saqlanadigan TMZ hujjatining jadval qismini to'ldiradi;

i) hujjatga sharhlar.

(«Baholar usuli») jadval qismi:

a) TMZ (tanlov «Tovar-moddiy zaxiralar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);

- b) TMZ schyoti - TMZ hisobini yuritish schyoti;
- d) Hisobdan chiqariladigan TMZ soni;
- c) miqdori bo'yicha qoldig'i
- f) summasi bo'yicha qoldig'i
- g) TMZ summasi- «FIFO/AVECO metodi» strategiyasi muvofiq hisoblanadi. Mazkur maydon hujjatni o'tkazishdan so'ng to'ldiriladi.

Hujjat quyidagi o'tkazmalarni shakllantiradi:

1) «baholar usuli»:

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Summa	Izoh
Xarajat schyoti	Subkonto	TMZ schyoti	TMZ, saqlash joyi, bahosi	Miqdori, soni	

2) «FIFO/AVECO usuli» («AVECO»ga «tovar turkumi» subkonto mavjud bo'lmasa):

Dt	Subkonto	Kt	Subkonto	Summa	Izoh
Xarajat schyoti	Subkonto	TMZ schyoti	TMZ, saqlash joyi, partiyasi	Miqdori, soni	

Hujjatga ilova qilinadigan bosma shakllar:

- talablar;
- tovar-moddiy zaxiralarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi;
- hujjatning harakatlanishi

14.6. Sotish narxini belgilash

Tovar-moddiy zaxiralarni sotish bahosini kiritish (ustama baho bilan) «**Sotish narxini belgilash**» hujjati asosida amalga oshiriladi. Bu hujjat «TMZ qoldiqlarini kiritish» (chakana bahoda sotish uchun), «TMZ kirimi yukxati» (chakana bahoda sotish uchun), «Schyot-faktura yukxati» va «TMZning ko'chirilishi» hujjatlaridan oldin tuziladi. Hujjat quyidagilarni aks ettiradi:

- a) hujjat raqami;

- b) hujjat sanasi va vaqti;
- d) tashkilot – ma'lumotnomalardagi tashkilotlarning nomlari avtomatik tarzda qo'yiladi;
- e) saqlash joyi (tanlov «Saqlash joyi» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
- g) «to'ldirish» tugmasi - saqlash joyining belgilangan joyida saqlanuvchi TMZ hujjatining jadval qismini to'ldiradi;
- h) hujjatga sharhlar;
- i) jadval qismi;
- j) nomenklatura (tanlov «Tovar-moddiy zaxiralar» ma'lumotnomasidan amalga oshiriladi);
- k) ulgurji bahosi;
- l) chakana baho.

Hujjat o'tkazmalarni shakllantirmaydi va bosma shakllarga ega emas. «Realizatsiya qilish bahosi» registri ma'lumotlariga qaydlar kiritiladi.

Tayanch so'zlar:

- Yukxati hisobvara-q-faktura.
- TMZ ni o'tkazish.
- Tovar-moddiy zaxiralarni qayta baholash «TMZni».
- TMZ kirim yuk xati.
- Talabnoma.
- Sotish narxini belgilash.

XV mavzu. HISOBOTLAR

Dasturdagi hisobotlar quyidagilarga bo'linadi:

15.1. Standart hisobotlar

Standart hisobotlar – bu belgilangan sozlashlar orqali buxgalteriya hisobi schyotlari bo'yicha tahliliy axborotni olishga mo'ljallangan. Standart hisobotlarga quyidagilar kiradi:

a) solishtirma dalolatnoma - belgilangan davr uchun va tarlangan tashkilot uchun solishtirma dalolatnoma shakllantiriladi;

b) aylanma-saldo qaydnomasi - belgilangan davr uchun har bir schyot bo'yicha qoldiqlar va aylanmalar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi;

d) schyot bo'yicha aylanma-saldo qaydnomasi – belgilangan davr uchun har bir obyekt bo'yicha qoldiqlar va aylanmalarni tahlil qilish ma'lumotlarini qamrab oladi (subkonto);

c) bosh daftar - aylanmalarni (schyotlar bo'yicha alohida) va har bir oy uchun schyot qoldiqlarini chiqarish uchun qo'llanadi;

f) schyot kartochkasi - ma'lum bir schyotning boshqa schyotlar bilan bog'liq yoki ushbu schyotning qo'shimcha schyotlari bilan bog'liq barcha o'tkazmalarni qamrab oladi (subkonto). Bundan tashqari, schyot kartochkasida davrning boshi va oxiridagi qoldiqlar, davrdagi aylanmalar va har bir o'tkazma amalga oshirilganidan keyin paydo bo'luvchi qoldiqlar ko'rsatiladi;

g) schyotning tahlili – ma'lum bir davrda schyotning boshqa schyotlar bilan aylanmasini hamda davrning boshi va oxiriga nisbatan saldoni o'z ichiga oladi;

h) subkonto bo'yicha schyot tahlili – ushbu schyotning boshqa schyotlar bilan belgilangan davrdagi korrespondensiyalarining yakuniy mablag'larini hamda schyotning analitik hisob obyektlari doirasida davrning boshi va oxiridagi

qoldiqlarni o'z ichiga oladi. Mazkur hisobot faqat analitik hisob uchun shakllantirilishi mumkin;

i) ma'lum bir sanada schyotning tahlili - belgilangan davrning har bir sanasiga schyot bo'yicha aylanmalar va qoldiqlarni o'z ichiga oladi. Bu, masalan, tashkilotning o'z mablag'lari va majburiyatlari davrlar mobaynida o'zgarishini tahlil etishda, bank ko'chirmalarida va boshqa hujjatlarda mavjud ko'rsatkichlar axborot bazasiga kiritilgan ma'lumot bilan mos kelishini tekshirish uchun xizmat qiladi;

j) o'tkazmalar jurnali - ayrim belgilangan mezonlar asosida tanlab olingan o'tkazmalarni aks ettiradi;

k) schyot bo'yicha harakatlar qaydnomasi - aniq bir schyot bo'yicha ma'lum bir davrda hujjatlararo amalga oshirilgan harakatlarni aks ettiradi;

l) ma'lumotnomalar bo'yicha universal hisobot - ko'rsatilgan ma'lumotnomaning nomi bo'yicha axborot olishga xizmat qiladi;

m) hujjatlar reyestri - ko'rsatilgan hujjat turi bo'yicha ma'lumotlarni olishga xizmat qiladi;

n) avtotransportni ijaraga olish shartnomasi - shartnoma shabloni;

o) beg'araz foydalanish shartnomasi - shartnoma shabloni;

p) hadya qilish shartnomasi - shartnoma shabloni;

q) oldi-sotdi shartnomasi - shartnoma shabloni;

r) xizmat ko'rsatish shartnomasi - shartnoma shabloni;

s) zayom shartnoma - shartnoma shabloni;

t) garov shartnomasi - shartnoma shabloni;

u) pudrat shartnomasi - shartnoma shabloni;

v) ijara shartnomasi - shartnoma shabloni;

w) shartnomalar reyestri - ko'rsatilgan davrdagi tuzilgan shartnomalar haqida ma'lumotlar keltirilgan;

x) xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni - ko'rsatilgan oy kunlari bo'yicha xodimlarning soni haqidagi ma'lumotlar keltirilgan;

y) shaxmatka - schyotlar korrespondentsiyalari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

15.2. Reglament hisobotlar

Reglament hisobotlar - bu soliq organlariga taqdim etiladigan soliq va buxgalteriya hisobotlari hamda turli jamg'armalarga berish uchun mo'ljallangan hisobotlar. Hisobotni shablon shaklida va to'ldirilgan hisobot ko'rinishida shakllantirish imkoniyati mavjud (to'ldirish dasturga kiritilgan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi). Reglament hisobotlariga quyidagilar kiradi:

- a) № 1 shakl;
- b) № 2 shakl;
- d) № 2a shakl;
- e) № 3 shakl;
- f) Yo'l jamg'armasiga ajratmalar;
- g) budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalar;
- h) Maktab ta'limiga ajratmalar;
- i) foyda solig'i;
- j) qo'shilgan qiymat solig'i;
- k) aksiz solig'i;
- l) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- m) yer solig'i;
- n) mol-mulk solig'i;
- o) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- p) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- q) yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari hisob-kitobi;
- r) ShJBIIS reyestri;
- s) yagona soliq to'lovining hisob-kitobi;
- t) IKB (MB) kichik biznes shakli;
- u) yagona er solig'i.

15.3. Hisobotlar bilan ishlashning umumiy tamoyillari

Hisobotlar bilan ishlashning umumiy tamoyillari:

- **«shakllantirish» tugmasi** - mazkur tugmani bosganda hisobot shakllanadi;

- **«sozlash» tugmasi** – mazkur tugma bosilganda hisobot sozlashi aks etadi. «Aksiz solig'i» hisobotini tuzishda mazkur tugma ko'rsatilgan aksizga oid mahsulot (alkogol mahsuloti, tilla buyumlar va boshq.)ni ko'rsatilgan vaqt va tegishli tashkilotlar bo'yicha hisobotini tuzish imkoniyatini beradi;

- **«tarix» tugmasi** – mazkur tugmani bosganda tashkilotning jo'natilgan elektron hisoboti tarixi aks ettiriladi;

- **«tahlil qilish rejimi» tugmasi** - ushbu tugmani bosganda shakllangan hisobot kompyuterda mavjud bo'lsa, Microsoft Excel dasturiga uzatiladi;

- **«E-Report» tugmasi** – mazkur tugma bosilganda Davlat Soliq inspeksiyasi dasturidan chiqmasdan turib elektron hisobotni yuborish amalga oshadi

Hisobotlarning bir qismida sharhlash imkoniyatlari mavjud bo'lishi mumkin, ya'ni kerakli yacheykani bosganda ekranda menyu paydo bo'ladi va Siz zarur hisobotni tanlab olishingiz mumkin. Soliqlar bo'yicha hisobot shakllari zarur imtiyozni me'yoriy-huquqiy akt va imtiyoz summasi ko'rinishida tanlash mumkin bo'ladigan imtiyoz rasshifrokasini aks ettiradi.

Tayanch so'zlar:

- Standart hisobotlar.
- Reglament hisobotlar.
- Hisobotlar bilan ishlashning umumiy tamoyillari.

XVI mavzu. ELEKTRON HISOBOTLARNI JO'NATISH

Bugungi kunda elektron hujjatlar aylanmasi g'ayritabiiy so'zlar birikmasidan buxgalter uchun qulay ishlash vositasiga aylandi. Haqiqatdan ham, to'p-to'p qog'ozli hujjatlar o'rnini bosuvchi elektron hujjatlar aylanmasi muammolar echimini ancha osonlashtiradi, vaqt va resurslarni tejaydi.

Dastavval konservativ kayfiyatdagi buxgalterlar hisobotni elektron ko'rinishda topshirish imkoniyatiga shubha bilan qarashgan bo'lsa, bugun buxgalteriyani avtomatlashtirganlar buxgalteriyani avtomatlashtirish bo'yicha zamonaviy dasturiy ta'minotdan foydalangan holda, hisobotlarni masofadan jo'natishni tabiiy hol, deb qabul qilishmoqda. Ayni paytda O'zbekiston bozorida taqdim etilgan qator dasturiy mahsulotlar (misol uchun, «BEM») ularga ana shunday imkoniyatni taqdim etmoqda: hisobot.uz saytida tizimning ishlashi bilan birinchi marta ro'baro' bo'lgan kishi o'zini xuddi notanish shahardagidek his etishi mumkin — qator «ko'chalar», tushunarsiz nomlar, ko'rsatkichlardagi belgilar ham qisqa va lo'nda. Amalda esa, har qanday odam tizimning ishini tushunishga va qabul qilishga qodir. Buning uchun ko'p vaqt ham talab etilmaydi. Faqat yaxshi yo'l ko'rsatuvchi kerak.

